

ISBN: 978-93-90756-72-8

DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN EDUCATIONAL CLUSTER ENVIRONMENT



DEHQANOVA MUBORAKXON G'YOSIDDIN QIZI



Published by
Novateur Publication
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

DEHQANOVA MUBORAKXON G‘IYOSIDDIN QIZI

**TA‘LIM KLASTERI MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINIF
O‘ZLASHTIRMOVCHI O‘QUVCHILARINING BILISH JARAYONLARINI
RIVOJLANTIRISH**

mavzusidagi

MONOGRAFIYASI

UO‘K

KBK

Dehqonova M.G‘.

Ta’lim klasteri muhitida boshlang‘ich sinf o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarining bilish jarayonlarini rivojlantirish.

Mas’ul muharrir:

Qodirova Feruzaxon Usmonovna – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Achilova Sevara Djasirkulovna- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Shokirova Shaxnoza Dilmuradovna-pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Ushbu monografiya ta’lim klasteri muhitida boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan o‘zlashtirmovchi, jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarning bilish qobiliyatlarini e’tiborga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim va tarbiya olishlari uchun yordam ko‘rsatish maqsadida o‘quv-tarbiya, korreksiyalash va davolash-sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyatini tashkil etishni, buning uchun zarur sharoitlarni yaratishni, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuviga ko‘maklashishni, shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta’lim berishda yordam ko‘rsatishni amalga oshiradi.

Ushbu monografiyani pedagogika oliy ta’lim muassasalari bakalavr, magistr bosqichi talabalari hamda umumiy o‘rta ta’limda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan tashkilotlari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti kengashining 2022-yil 29 avgustdagi № 1 sonli majlisida muhokama qilingan.

MUNDARIJA

Kirish

I BOB TA'LIM KLASTERI MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'ZLASHTIRMOVCHI O'QUVCHILARI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....

1.1 § Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinfi o'zlashtirmovchi o'quvchilari bilish jarayonlarini rivojlantirish pedagogik muommo sifatida.....

1.2 § Boshlang'ich sinfi o'zlashtirmovchi o'quvchilarida bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....

1.3 § Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinfi o'zlashtirmovchi o'quvchilarining bugungi kundagi axvoli.....

II BOB. TA'LIM KLASTERI MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI BILISH JARAYONLARI RIVOJLANTIRISH.....

2.1 § Boshlang'ich sinfi o'zlashtirmovchi o'quvchilarini rivojlantirish bo'yicha dastur

2.2 § Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinfi o'zlashtirmovchi o'quvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari

2.3 § Boshlang'ich sinfi ta'limi jarayonida interfaol metodlarning darslarga tadbiq etish

2.4 § Psixokorreksion ishlarni tashkil etish (metodik tavsiyalar)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....

Kirish

Jahon ta'lim tizimida klaster asosida pedagogik obyektlarni loyihalashga oid metodologik yondashuvlarni chuqur nazariy tadqiq etish va shu asnosida malakali mutaxassislar tayyorlash muommosini kompleks yechishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Jahon ta'lim tizimida o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillar, shart sharoitlar va munosabatlarni o'rganish, ularni taxlil qilish bilan bog'liq tadqiqotlarga ehtiyoj ortmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kun davlatlar va insoniyat hamjamiyati oldiga dolzarbligi va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017 yil 10-11 mart va 2018 yil 16-17 fevral kunlari xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishib, O'zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari ko'rsatib berilgan. Darhaqiqat, so'nggi vaqtda innovatsion klaster tizimi barcha sohalarga shiddat bilan kirib bormoqda. Jumladan, ta'lim tizimida ham klaster mavjud. Bu esa shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning bog'liqligi – maktabgacha, umumiy o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta'lim zanjirini bir-biriga bog'langanidir. Shuning uchun ham yurtboshimiz hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni "Klaster usuli"da rivojlantirish bo'yicha qo'ygan maqsad va rejasiga asoslangan holda OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri"larini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi bosqichida talabalarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Bugungi kun yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash, ta'lim

sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish g'oyasi kun tartibidagi dolzarb va ustivor vazifalaridan biri sifatida davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanib kelinmoqda[58]. Yuksak maqsadlarga erishish barqaror rivojlanish yo'liga chiqish uchun mamlakatlarning zamonaviy fikrlaydigan bilimli va salohiyatli kadrlarga ega bo'lgan ehtiyojini sifatini qondirish talab etiladi. Sifatli ta'lim uchun yaratilgan shart-sharoitlar xususan pedagogik munosabatlarni bugungi davr talablari asosida tahlil qilish, ilmiy pedagogik muommo sifatida tadqiq qilish va xalqaro ta'lim dasturlari talabi asosida ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Dunyo xalqlarining boshlang'ich ta'lim tizimida pragmatik o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonligini oshirish bilan bir qatorda sifat o'zgarishlariga xam e'tiborni kuchaytirish talab qilinmoqda. Xalqaro baholash dasturlari turli yoshdagi o'quvchilarning o'qib tushinish, mulohaza qilish, matematik savodxonligini kuchaytirish, o'quvchilarda bilish jarayonlarni malaka ko'nikmalarini xosil qilish kabilarni na'zarda tutadi. Ularning barchasida o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, fanlar o'rtasidagi integratsion munosabatlarni ta'minlash va ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilishga qaratilgan maqsad mavjud. Shu ma'noda bugungi kunda xalqaro baholash dasturlarida yuqori reyting natijalarini qayd etish, ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tanqidiy o'rganish, xususan ta'lim muassasasida yuzaga keladigan pedagogik muommolarni chuqur tahlil etish hamda aniq amaliy mehanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq fundamental ilmiy tadqiqotlarga zarurat ortmoqda.

Bugungi kunda o'qitishning zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish barobarida o'quvchilarning o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'qitish jarayoni elementlarini loyihalash, o'rganishning usullari va qoidalarini individuallashtirish, o'quv materiallariga ijodiy munosabat, qo'llaniladigan didaktik vositalar yordamida ta'lim olishiga yuqori motivatsiya uyg'otishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish, bilish faoliyatini rivojlantirish - insonning o'zini shaxsi sifatida to'la namoyon etishga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, bu faoliyat maqsadlarini aniq anglashni, ideallarni va shaxsi yo'naltirganlikni nazarda tutadi. O'zini-o'zi shaxsiy kasbiy va ijodiy rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda nafaqat o'quvchilarning fikrlash xususiyatlariga shuningdek ichki omillarga ham e'tibor qaratish kerak. Bundan kelib chiqadiki, butun uzluksiz ta'lim jarayonida ya'ni maktab, litsey va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur [2].

Ta'lim klasteri subyektlari, ya'ni klaster tarkibiga kirgan ta'lim muassasalarining ijtimoiy muhitda ta'riflash mumkin. Ta'lim klasteri tarkibiga kirgan har bir ta'lim ta'lim muassasining ijtimoiy madaniy muhiti, rivojlanishi, tashqi omillarga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasasining amaliyotidagi va belgilangan istiqbolli g'oyalari, shakllangan ta'limiy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan talablar mazmuni hamda ta'lim klasteri muhitidagi mavjud muommalarning logistikasi va diagnostikasi bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik ta'lim klaster muhitining individual xususiyatlari, ta'lim jarayonidagi mavjud muommalarni bartaraf qilish mehanizmini ishlab chiqish va uni joriy etishga oid zamonaviy yondashuvlarni tanlash, o'zini-o'zi intellektual belgilash muhiti xisoblanadi. Boshqa tomondan esa, ijtimoiy-madaniy muhit pedagogga ta'sir sohasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim klaster muhiti shaxsni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, maqsadga erishish uchun ta'limning tashkiliy va jarayonli shakllari, usullari, mazmun elementlarini maqsadga yo'naltirgan holda tanlash, loyihalash va qo'llash natijasi sifatida qaraladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Xarakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy soxani rivojlantirish bo'lib, unda belgilangan vazifalar yurtimizda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi, millatimizga xos mexr shavqatning muhim qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Xalqaro xujjatlardan ayrimlarini keltiramiz: Inson

xuquqlari umumjaxon deklaratsiyasi; BMT tomonidan 1989-yilda qabul qilinib, 1992-yilda O'zbekistonda ratifikatsiyalashtirilgan "Bola xuquqlari to'g'risida"gi konvensiyada ta'kidlab o'tilgan.

Yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun xam milliy xuquqiy meyoriy xujjatlar yaratilgan : O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (13-41 moddalar), "Ta'lim to'g'risidagi qonun" (20.47.52.55 moddalar) "Bola xuquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni 2017 yil 1 dekabrda PF-5270 sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvattalash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12 yanvardagi "kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kommissiya tizish to'g'risida"gi farmoyishi, 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi xalq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712 sonli xamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya mavzusida muayyan tarzda xizmat qiladi [3].

Jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim va tarbiya olishlariga ko'maklashuvchi mos muhitni yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini takomillashtirishga qaratilgandir. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarning bilish qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda umumiy o'rta ta'lim va tarbiya olishlari uchun yordam ko'rsatish maqsadida o'quv-tarbiya, korreksiyalash va davolash-sog'lomlashtirish muassasalari faoliyatini tashkil etishni, buning uchun zarur sharoitlarni yaratishni, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashishni, shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yordam ko'rsatishni amalga oshiradi [4].

I bob. Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish jarayonlarini rivojlantirish masalasining metodologik asoslari

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim klasteri va uning amaliyotga tadbqiq muammosi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida keyingi yillarda chuqur o'rganilmoqda. Xususan, ta'lim klasteri pedagogikamizda integratsiya va uzluksizlik bilan bog'liq yangi innovatsion yo'nalish hamda uning amaliyotga tadbqiq qilinishi pedagogik ta'limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi G'.I.Muhamedov, Sh.Q.Mardonov, Sh.Botirova, X.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan [87]. Muammoga yondosh bo'lgan yo'nalishlarda, xususan: uzluksiz ta'lim tizimining tashkiliy-pedagogik omillari, ta'lim tizimini mazmun va shakl jihatdan takomillashtirish mexanizmlari R.Eshchanov, G.Bobojonova, D.Bekchanov, M.Quronov, R.A.Mahmudov, R.Sh.Ahliddinov, Yu.N.Abdullaeva; ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, ta'lim turlararo integratsiyani kuchaytirish B.S.Abdullaeva, N.X.Raxmonqulova, D.Sh.Yakibova, M.I.Toshpulatova, A.A.Jumanov, R.B.Adizov; fanlararo aloqadorlikni ta'minlash va ta'lim muassasalarining ilmiy-uslubiy hamkorligining tashkiliy jihatlari N.M.Abdullaeva, G.Sh.Fayzullaeva, O.K.Abdurahmonovlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'lim klasterlarini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, hududiy ta'lim klasterlarining tuzilmasi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish, kasbiy ta'limda klaster modelini tatbiq etish muammolari A.Yashevoy, B.Pugacheva, A.G.Granberg, M.Galushkina, A.V.Leontev; klaster modeli vositasida ta'limni boshqarishni nazariy va ilmiymetodik jihatdan takomillashtirish texnologiyalari N.V.Gorodnova, P.F.Anisimov, G.I.Ibragimov, D.L.Skipin, V.P.Panasyuk, N.Ye.Yegorov; ishlab chiqarish va ta'limni klaster vositasida integratsiyalashning mazmuni, shart-sharoitlari va omillari N.A.Mishura, L.L.Naumova; individual sub'ektlar va klaster ishtirokchilarining imkoniyatlarini oshiradigan ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshiriladigan ta'lim resurslarini tashkil etishning integral

tizimlari A.S.Subetto, Ye.A.Korchagin, N.A.Sharay, L.N.Nikolaeva, T.V.Vdovinalar tomonidan tadqiq etilgan [26]. Xorijlik olimlardan A.Marshall, M.Porter, O.Solver, G.Lindqvist, S.Ketelslarning ilmiy izlanishlarida klaster modelining muayyan sub'ektlar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, ta'lim klasterlari modelining yagona tipologik xususiyatlari AQSh va Yevropa mamlakatlari misolida ochib berilgan. Xorijiy tadqiqotlarda ta'lim klasterlari hududiylik, boshqaruv, raqobatbardoshlik, fan va ishlab chiqarish munosabati kabi yo'nalishlar bo'yicha umumiy tarzda o'rganilgan. Klaster modelini ta'limning muayyan tarmog'ida, xususan, pedagogik ta'limda samaradorlikka ta'sir etuvchi omil sifatida tadbqiq etish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi [86].

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmlari, innovatsion texnologiyalari amaliyotga tadbqiq etilgan. Natijada ta'lim oluvchining akademik, ijtimoiy ehtiyojlarini tezkor diagnostika qilish orqali sifatli ta'lim bilan ta'minlashning modernizatsiyalashgan tizimini modellashtirish imkoniyati kengaydi. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inchxon" deklaratsiyasi "Bir umrlik ta'lim" , "Ta'lim hamma uchun" dasturi asosida imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga erta jalb etish orqali inklyuziv ta'limga erishish, oliy ta'limda fanlarni o'qitish metodikalarini takomillashtirish hamda amaliy yo'naltirish, bo'lajak defektologlarning kasbiy kompetensiyalarini intensiv rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida inklyuziv va korreksion ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishga o'rgatish metodikalarini rivojlantirish, ta'lim ishtirokchilari faoliyatini diversifikatsiyalash, bo'lajak defektologlarni kasbiy amaliyotga metodik tayyorlash texnologiyalarini

takomillashtirish, ta'lim jarayonida oilalar, hamkor tashkilotlarning ishtirokini kuchaytirishning samarali mexanizmlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yetakchi davlatlar AQSh, Xitoy, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Singapur, Rossiyada bo'lajak defektologlarni, ota-onalarni, tor mutaxassislarni korreksion va inklyuziv ta'lim amaliyotiga tayyorlashda interfaol usullar, adaptiv o'quv vositalaridan samarali foydalanish, maktabgacha va maktab ta'limi mazmuniga kommunikativ – motivatsion, refleksiv-rivojlantiruvchi talablarni optimallashtirishning didaktik ta'minotini yaratish, mentor-o'qituvchi, mentor-talaba, hamkor-oila faoliyatiga talabalarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarini tizimlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda [19].

Ta'lim klasteri deganda mintaq va munitsipalitetlarning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishi, yosh avlodni intellektual rivojlantirish manfaatlarini ko'zlab, o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim tashkilotlari tarmog'ining tizimi tushuniladi. Shu jumladan ta'lim klasteri, qoida tariqasida, hududning fundamental ilmiy va ilmiy-amaliy ishlanmalar, o'quv loyihalari, yangi texnologiyalar va texnikalar, ilmiy mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish doirasida birlashtirish va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

1.1 § Ta'lim klasteri muhitida o'zlashtirmovchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish jarayonlarini rivojlantirish pedagogik muommo sifatida.

Pedagogik ta'lim klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik ta'lim klasterini rivojlantirish va uning rivojlanish dasturini amalga oshirishni ta'minlaydigan texnologik infratuzilmasi obyektlari, ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar klaster infratuzilmasi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabda tahsil olish jarayoni ba'zi bolalarda qiyin kechishi sir emas. Maktab dasturlarini o'zlashtirishdagi qiyinchilik turli sabablarga bog'liq bo'ladi, masalan: bolalardagi infantilizm ya'ni organizmning yetilmay qolishi, harakatlanish ko'nikmasining

rivojlanishining yetarli emasligi, fazoviy tasavvurlardagi nuqsonlar, xotiraning buzilishi, yozish va o'qish ko'nikmasini o'zlashtirish, matematik ko'nikmalarni egallash, umumiy bilimdonlik zahirasiining cheklanganligi, astenik holat va boshqa turli ruhiy jarohatlanganlik kabi holatlar.

Bolaning muammolariga, uning sabablarini bilishga oiladagilar va maktabdagilarning to'g'ri va oqilona yondoshishi bolani maktab jamoasiga o'z vaqtida moslashishiga va o'zlashtirishini yaxshilashiga yordam beradi va nihoyat o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otish imkonini beradi. Lekin afsuski, bolalarni maktabda dars programmasini o'zlashtirib olishga ulgurmasliklarining sababini nimadaligini va ularga dasturlarni o'zlashtirishdagi qiyinchilikni yengishda qanday yordam berishni ota-onalar va o'qituvchilarning hammasi ham bilmaydi.

Quyida bolalarning aqliy salohiyati hamda ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan, ularning ta'lim olishida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchilik- muammolar haqida aytib o'tish bilan birga, ularning sabablarini aniqlab, muammo yechimlarini topishning samarali usullarini tavsiya etishga harakat qilamiz.

O'zlashtirishda orqada qolishning sabablaridan biri bolaning shaxsi va uning hatti-harakatining yetilmay qolishi, ya'ni **infantilizm** bo'lishi mumkin. Infantil xususiyatli bolalarning harakati mustaqil bo'lmaydi, ular sinfdagi faol bolalarga taqlid qilish bilan cheklanishadi. O'z-o'zini nazorat qilish va o'ziga nisbatan ishonchning yetishmasligi tufayli katta bolalar va xatto sinfdoshlarining ta'sirida ularga qo'shilishib baqiradi, qichqiradi va turli qiliqlar qiladi. Darsdan orqada qolishga sabab ko'pincha o'quv qurollarini uyda unutadi. Dars davomida yetarlicha tirishqoqlik qilmaydi, vazifalarni yozib olmaydi, sinfda ekanligini butkul unutadi. Bunday bolalarga hissiy o'zgaruvchanlik xususiyati xosdir: ular bo'lar-bo'lmasga yig'lashlari mumkin, lekin ularni boshqa biror o'yin yoki qiziqroq narsa bilan diqqatini tortib, ovutish oson.

Tavsiyalar: Bunday bolalarga maktabga moslashishiga vaqtida yordam berishi kerak. Bolaga rangli ko'rgazmalar bilan bog'liq qo'shimcha qiziqarli vazifalar berish, o'ziga va do'stlariga as qotadigan unchalik qiyin bo'lmagan ko'rgazmali qurollar yasashni taklif qilish tavsiya qilinadi. Maktabdagi ta'limga

qiziqishini uygʻotish uchun uning ijodiy tashabbuskorlik imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bunda bolani jazolash emas, balki oʻziga boʻlgan ishonch kuchini uygʻotish kerak. Taʼlimning birinchi oyida darslarni oʻyin shaklida oʻtkazgan foydaliroq, vazifalarni va oʻyinlarni kerakli miqdorda oʻynash va ularni oʻzgartirib turish lozim, avvalo oʻyinli vaziyatlar bilan oʻz ishiga maʼsuliyatli boʻlishni oʻrgatish kerak, soʻngra maktabdagi vazifalarga oʻrgatamiz. Odamlar faqat oʻzlariga yoqqan ishni qilishsa, nima boʻlishini bolalarga tushuntirish lozim. Misollar keltirish, misollar yaxshisi, kulguliroq boʻlishi kerak. Oʻtgan kun uchun hisob berishni va oʻsha kunda nima yaxshi ish qilaolganini tahlil qilishga oʻrgatish kerak. Yaxshi narsa uchun kurashishni, yomon narsa uchun yon bosmaslikni tushuntirib berish kerak. Mustaqil hulosa chiqarishga oʻrgatish, masalan, yoqimsiz vaziyatlardan qochish uchun u qanday yoʻlni tanlagan boʻlardi kabi vaziyatlarni ishlab chiqish lozim [68].

Pedagogik tajribalarda uchraydigan holatlardan yana biri, ota-onalar farzandlarini **yozish koʻnikmasini** egallashda qiynalayotganidan arz qilishadi, yaʼni farzandlari harflarni tekis bir qatorga yozmaydi va qatordan chiqib ketadi. Bunda bolani ruchka yoki qalamni toʻgʻri ushlolmasligi ayon boʻladi. Ayniqsa, agar bola juda sekin yozsa bu ham muammolardan biridir, chunki bola harf va sonlarni yumaloq yozishga, doirachalar va oval shaklini chizishga qiynaladi. Daftarga chizilgan barcha geometrik shakllar aytilgan shaklga juda ham kam oʻxshaydi, kichik yoshli bolalarning rasmini eslatadi. Vazifani beparvolarcha bajargandek taasurot uygʻotadi. Yozma berilgan vazifani amalga oshirishda biror harf yoki belgini qayta-qayta yozib, juda ham koʻp vaqt ketkazadi. Koʻpchilik ota-onalar birinchi sinf farzandlarini harfni toʻgʻri yozmaguncha keraksiz daftarda mashq qilishiga undaydilar. Bolalardagi asosiy qiyinchilik tez yozaolmasligi yoki kimnidir aytib turishiga ehtiyojidir. Uyga vazifalarni shoshilmay bajarishganda, koʻpchilik bolalarning yozuvi tushunarli boʻladi. Diktant va sinf ishilar esa yoki oxirigacha yozilmagan, yoki tushunarsiz yozilgan boʻladi.

Bunday bolalarning motorika rivojlanishining tekshiruvi shuni koʻrsatadiki, ularning koʻpchiligi kech yurishni boshlaydi va oʻyinchoqlarini ushlashga boʻlgan

ko'nikma ham kech uyg'onadi. Bola narsani uzoq ushlab turolmaydi, tashlab yuboradi, qo'pol bo'ladi: piyolani stolga qo'yolmaydi – tushib ketib, sinadi; zinalardan qiyinchilik bilan chiqib tushadi, bir oyoqda sakrashni, kiyimlarini o'zi kiyishni va tugmalarini qadashni kech o'rganadi. Bunday bolalarga narsalar yasash, rasm chizish, kubiklar, koptok, piramidalar o'ynash qiyin bo'ladi, bunday harakatlar mayda differensiyalash harakatlarini amlaga oshirishni talab qiladi. Bunday bolalarda asosiy qiyinchilik ruchka yoki qalamni ushlashda kuzatiladi: ularni ushlash noqulay, barcha barmoqlari bilan ushlaydi, rasm chizish uchun kerakli kuch bilan yozolmaydi. Bolalar bog'chasida raqs, ritm, jismoniy tarbiya darslarida tengdoshlaridan ortda qoladi, epchillik qilolmaydi. Yuqori sinflarda ular chizgan rasmlar ikki yoshli bola chizgan rasmdan yomonroq chiqadi: doira, quyoshcha, archa rasmlarini chizolmaydi. Nevropotolog ko'rigida bunday bolalarda xech qanday nuqson aniqlanmaydi. Faqatgina ular harakatlarini rivojlanishini kechikayotganini aytishadi.

Tavsiyalar: O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmasini ishlab chiqarilishidan tashqari, kuniga 15-30 daqiqa nozik harakatlarni rivojlantirish bo'yicha maxsus o'yinlar va darslarni yo'lga qo'yish lozim: piramida, kubik mozaika terish, rasm, plastilin yordamida haykaltaroshlik, qaychida kesish va aniq shakllar yasash. Harakatlarning o'zaro mosligi va ritmi, epchillik uchun musiqa ostida gimnastika bilan shug'ullanish zarur. Darslarni sog'lomlashtirish guruhlarida va da'volovchi jismoniy tarbiya honalarida o'tkazishlari mumkin. Yozgi vaqtlarda esa uzoq davom etmaydigan kunlik xusni xat darslari yo'lga qo'yilishi kerak [36].

O'zlashtirmovchilik va fazoviy tasavvurlar yetishmovchiligi - Bolada fazoviy tassavurlarni rivojlanishi miya tuzilishining tepa qismini o'z vaqtida kamolotga yetishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, fazoviy tasavvurni rivojlanishi uchun motorika ko'nikmalarini o'z vaqtida shakllanishi muhim. Bunda bolalar qanday qiyinchiliklarni boshdan kechiradi? Ularga o'ndan yuqorisini sanashni o'rgatish juda qiyin. Bolalar sonlar tartibini o'zlashtirishda qiynalishadi: birlik, o'nlik, yuzlik. Ularda geometrik figuralar (to'g'ri to'rtburchak, uchburchak) va geometrik jismlar (kub, parallelogram va piramida) haqidagi tushunchani shakllanishi qiyin kechadi.

Ko'pchilik birinchi sinf o'quvchilarida ko'zguli xat-savod holati uchraydi. Bola rasmni qiyshaytirsam uni nimaligini tanimaydi, teskari ko'rinishda u harf va sonni nimaligini bilmaydi, namunani olib qo'ysa, kubiklardan uycha qurolmaydi, uni chizolmaydi.

Bolalarga rasm chizish juda qiyin bo'ladi. Bunday asosiy qiyinchilik motorika ko'nikmalarni no'noqligi emas, balki joy va makonni tushuna olmaganidandir. Undan keyin, o'quvchilardagi tasvirni chizish va vazifani amalga oshirish tasvirni tushunish bilan bog'liq.

Shunday qilib, o'g'il bolalar chilangarlik va durargorlik ishlarini bajarishdagi tayyorgarlikda yomon moslashadi. Qizlar esa andaza bichish, o'lchamlarni olish va tikishga uquvi kamroq bo'ladi, lekin berilgan namuna yoki kimningdir andazasi bo'yicha tika olishadi. Lekin detallarni yig'ishda yengni bo'yinga yopishtirib qo'yishi mumkin. Yuqori sinflarda geometriya fanini o'rganishda biroz qiyinchilikni boshdan kechiradi. Ko'pchiligi formula va teoremlarni yuzaki yodlaydi, lekin aslini tushunmaydi. Shu kabi holatlarda masalani qiyinchilik bilan yechadi va ba'zan ularga ko'rgazmali qurollar yordam beradi. Shu kabi maktab o'quvchilari kimyoviy reaksiyalar va fizik qonunlarni o'zlashtirishda qiyinchilikni boshdan kechiradilar. Aslida qonunlar zahirida tushunish yotgan bo'lsa ham.

Tavsiyalar: fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'sha mavzuga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulot o'tkazish kerak. Bu ishni iloji boricha maktabgacha bo'lgan davrdan boshlash lozim. Boladan bir kunda turli savollarni bir necha bor so'rang: o'ng qo'l, chap qo'l, o'ng oyoq, chap oyoq qardaligini, so'ngra undan o'ng qo'l bilan chap quloqni ushlashni so'rang, yoki u bilan birgalikda tana a'zolarini joylashuvini o'rganib chiqing. Keyingi bosqich atrofdagi narsalar bilan amalga oshiriladi: bolaga o'yinchoq berib uni stol ustiga yoki tagiga, kitobni ustiga qo'yishini so'rang, stol ustida ushlab turishini iltimos qiling, bu vazifani navbat bilan o'ng qo'l yoki chap qo'lda bajartiring. Jismoniy mashqlar qo'l va oyoqni harakatlantirish bilan (tepaga, pastga, atrofga) amalga oshirilishi kerak.

Bolaga tekis shakllar (yumaloq, to'g'ri to'rtburchak) va bo'rtma jismlar haqida tushuncha berish lozim. Bolaga uycha, archa rasmini, to'g'ri va qayrilgan

ko‘rinishdagi to‘siqlarni rasmni chizish vazifasini berish, rasmlarni to‘g‘ri va teskari ko‘rinishda tomosha qilish foydalidir. Bundan tashqari, rasmni detallar va kontur ko‘rinishidan tanishni o‘rgatish lozim. Agar fazoviy tasavvurlar shakllanmagan bo‘lsa, konstruktiv harakatning iloji yo‘q. Maktabgacha va maktab yoshidagi yoshi katta bolalarga konstruktorlarni terishda qiyinlik darajasiga qarab berish tavsiya etiladi. Avvaliga bola bilan namunaga qarab birga qilish lozim, undan keyin bolani o‘zi o‘sha vazifani mustaqil bajarib ko‘rishi lozim. Keyinchalik bola o‘zi mustaqil ishlashga o‘rganadi. Agar birinchi mustaqil ishi namundagidek chiqmasa bolani ranjitmaslik kerak, asosiysi muhim qismlarga e‘tibor berganligi, tepa va quyi qism detallari aralashib ketmaganligi muhimdir. Keyinchalik, bolaga ota-onasini yordami bilan bajara oladigan turlicha modellar, masalan, samolyot, kema kabilarni modellarini berish lozim. Bu ish jarayonida boladan nimani qaysi tarafga yopishtirishni, tepagami pastgami deb so‘rab turish tavsiya qilinadi.

Bu mashg‘ulot o‘z vaqtida bolaga fazoviy tasavvurlar haqidagi kamchiliklarni yengib o‘tishida yordam beradi va natijada bola dastur materiallarni o‘zlashtiradi.

Maktab dasturlarini o‘zlashtirishdagi qiyinchilik aqliy faoliyatning biror bir qismini buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, masalan, **xotira**. Xotira buzilishini sabablari turlicha. Masalan, bola beixtiyor yodlashi kerak bo‘lgan materialni ko‘pincha eslab qol olmaydi, masalan, she‘r, ko‘paytiruv jadvali, yoki chet elcha so‘zlar. Bunday yoki shunga o‘xshash xotira buzilish holati astenik holatlarda uchrashi mumkin.

Bola materialni nafaqat tushunmasdan yodlab olgani uchun eslab qol olmaydi, balki yuzaki qaragani uchun ham. Shunday qilib, alfavitdagi harflar nomini va uning yozilishini bola yodlagandan keyingina eslab qola oladi, ammo bir oz vaqt o‘tgach, masalan 10-20 daqiqadan keyin u harfni nomini eslay olmasligi mumkin. Raqamlarni, atrofidagi odamlarni ismini, ko‘chasini nomini eslab qol olmaydi, ota-onasni ismini, maktabdagi tarbiyachisi va o‘ituvchilarini ismini qiyinchilik bilan eslab qoladi. Bunday hodisa ilk bora maktabgacha bo‘lgan yoshda yuz berishi mumkin. Ko‘pchilikda bu holat birinchi marta bolalar bog‘chasida maktabga tayyorlovda kuzatiladi. Bola o‘qishni o‘rganolmaydi, shu bilan birgalikda harflarni

ham eslab qolomaydi, harflarni eslab qola olamasligi nafaqat harflarning yozilishi va talaffuzi bir-biriga o'xshagani uchun, balki u shunchaki eslab qola olmaydi. Shu kabi qiyinchiliklar matematikani o'zlashtirishda ham uchraydi: raqam va miqdor o'rtasidagi bog'liqlik aniq bo'lsada, bola raqamlarni eslab qolomaydi. Masalan, bola o'sha 4 ta cho'pcha, 4 raqamini ifodalashini biladi. Agar bolaga raqamni eslatsa u raqamni nomi va sonini to'g'ri aytib beroladi. Lekin oradan ko'p o'tmay raqam nomi va uning ifodasini essidan chiqarib qoladi. Bolaga o'rgatgan vaqti, uni qanday eslab qolishni ham o'rgatish lozim. She'rlarni juda uzoq vaqt yodlaydi, oradan ko'p o'tmay esidan chiqaradida, yana qaytarishiga to'g'ri keladi. Lekin bolaga she'ri birinchi qatorini aytsangiz, qolganini o'zi davom etdirib ketadi.

Yomon xotira gumanitar fanlarni o'rganishga halaqit qiladi: tarix, geografiya, adabiyot. Bolalar chet tillaridagi qoidalarini o'zlashtirishga qiynaladi va ximiya hamda fizika bo'yicha formulalarni eslab qolishi yomon bo'ladi. Xotirasi yomon maktab bolalariga rasm bo'yicha vazifalar berish kerak va bir qaraganda eslab qolish mashg'ulotlarini o'tkazish lozim. Fizik qonunlar va kimyoviy reaksiyalar laboratoriya sharoitida o'tkazilsa, bolalar uni o'zlashtira oladi.

Tavsiyalar: agar maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar ism, joy nomi, she'rlar, qo'shiqlarni eslab qolomasa, unda bolalarni o'rganadigan, ularga bolaga qarab eslab qolish uchun vazifa beradigan psixologga murojat qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, xotira funksiyasini shug'ullantirishni boshlash kerak. Buning uchun, bola bilan birgalikda joy nomlarini, ismlarni, otasini ismini, familiyasini eslab qolishni shug'ullanish lozim. Hayvonlar, gullar, shaharlar nomini ishlatsa bo'ladigan o'yinlar o'ynash lozim. Masalan, avvalo bola o'ziga ma'lum bo'lgan shaxar, hayvonlar, ranglar nomini aytadi, kattalar esa yangi nomlarni aytadi, bola esa aytilganlarini qaytaradi. Odatda 4-5 yoshli bolada ixtiyorsiz xotiraning cho'qqisi kuzatiladi. Bunday vaqtlarda, agar xotira yomon bo'lsa uni yaxshilash osonroq. Harflar odatda ko'rgazmali qurollar bilan (rasmlardagi alifbo) o'rgatilishi lozim. Aqlan orqada qolgan bolalardan farqi, ular narsalarni nomini umuman eslab qola olmaydi, lekin xotirasi buzilgan bolalar esa narsani eslaydi, ammo nomini bilmaydi, uni nimaga bog'lash kerakligini tushunmaydi. Agar bolada maktabgacha bo'lgan davrda xotira

trenirovkasi o'tkazilmagan bo'lsa, umidsizlikka tushmaslik kerak. Bu ishni bola bilan quyi sinflarda ham o'tkazish mumkin. Bunday mashg'ulotlarda loto, kesilgan kartalar, cho'chalar, kubiklar, syujetli rasmlar, rasmlar bilan boyitilgan kitoblardan maqsadli foydalanish lozim.

Bolalarga narsalarni, 3x4 kartalardagi tasvirlarni va ularni nomini eslab qolishni taklif qilish foydalidir. So'nga 10-12 ta pala-partish qilingan o'xshash rasmlar ichidan o'sha rasmlarni qidirish kerak. Shu yo'l bilan maxsus kartalarga yozib, harf va sonlarni ham o'rganish mumkin. Bu mashg'ulot bilan kuniga 15-20 minut shug'ullanish kerak. Yana, diqqatni chalg'itadigan narsalarni eslab qolish mashg'ulotini o'tkazish mumkin, bunda ko'cha va shahar, daryo nomlaridan foydalanish zarur. Bulardan tashqari, ertak qahramonlarini ismlarini so'rash, she'r va qo'shiqni birgalikda kuylash mumkin. Mashg'ulot jarayonida xotira nafqat bitta a'zo yordamiga suyanadi, balki bir nechta a'zolar ham faollashadi. Shunday qilib, rasmlarni ko'rib chiqish uni tushuntirib berish bilan birga amalga oshirilishi lozim. Ko'rish hissi eshitish bilan mustahkamlanadi, agar bolaga bo'rtib chiqqan biror predmetni eslab qolish buyurilgan bo'lsa, yaxshisi o'sha predmetni ushlab ko'rsin. Yaxshi eslab qolish ko'rish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, sonlar va harflar bilan tanishayotgan bolalarning ko'pchiligi uning ko'rinishiga qarab nomlaydi. Ijodiy imkoniyatlardan va fantaziyadan to'liq foydalanmaganlik mashg'ulot jarayonida foydalanishi mumkin.

Yozuvning o'ziga xos buzilishi **disgrafiya** deyiladi. Disgrafiya nutqda tovushlarning qiyinchilik bilan qovushishi va ularning grafik tasvirida, harf yozilishida, uning ko'rinishi, so'zlarning bo'lishuvida ko'zga tashlanadi. Matndagi xatolar to'g'ri yozish qoidasini bilish bilan bog'liq emas.

Disgrafiya paytida bola odatiy eshitish bilan quyidagi harflarni farqiga bormaydi : [b] — [p], [d] - [t] va yana boshqalar. Disgrafiyaning bu formasi sensorli nomini olgan, uning asosida tovush va harflarni tahlil qilishda rivojlanishning yetarli emasligi yotadi va bu narsa fonematik eshitish qobiliyati deyiladi. Odatda bunday buzilish kech gapirgan bolalarda uchraydi, ular harflarni biridan boshqashiga almashtiradi, alohida harflarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Agar bola bilan logoped

maktab boshlanguncha o'z vaqtida shug'ullanishni boshlasa, logoped va otananing hamda tarbiyaching sayi harakatlari tufayli bolada toza va ravon hamda grammatik to'g'ri nutq ishlab chiqiladi. Yana nutq maromi tez bo'lganda va nutqqa oid vazifalar qiyinlashganda bola talaffuzida bir nechta buzilishlar kuzatiladi.

Bunday bolalarda maktabda ta'lim jarayonida qiyinchiliklar quyidagicha paydo bo'lishi mumkin: uning savodxonligi joyida bo'lmaydi, yozishda qiynaladi (bir harfni boshqasi bilan almashtiradi). Bunda bolagaundosh harfdan keyin unli harf kelishi haqidagi xusnixat qoidasi yordam berolmaydi. Masalan, bola tuproq so'zini turpoq deb yozishi mumkin.

Ularni bolalar bilmay yoki e'tiborsizligi tufayli qiladigan xatodan farqi bor. Ko'p xatolar o'qishning birinchi oyida harflar yozish diktanti jarayonida uchraydi. Ayrim xatolar so'zni to'liq bilmagani uchun kitobdan matn ko'chirishda ham uchrab turadi, ular so'zni o'qib, o'zlarini bilganlaricha yozadilar. Shu sababli xatolarga yo'l qo'yishadi. Tabiiyki, harflarni va so'zlarni noto'g'ri yozish o'zlashtirishni pasayib ketishiga sabab bo'ladi va bu esa bolani hamda ularning ota-onalarini ruhini cho'ktiradi. Bunday paytlarda bolani qayta qayta yozib ko'rishi talab qilinadi. Lekin qayta yozish kutilgan natijani bermaydi.

Umumiy maktabda o'qiydigan disgraf -bolalarda qanday qiyinchiliklar kuzatiladi? Yozishning ilk bosqichlarida bunday bolalar ikki yoki uch baholar olishadi. Matematikadan ham ba'zan yomon baholar olishadi. Masalani yechishda to'g'ri va xatosiz yozish ham kerak-ku. Keyinchalik esa bolaga qo'shimchalarni to'g'ri yozish qiyin bo'ladi. Albatta bunda fonematik eshitish qobiliyatini mashq qilib mustahkamlash kerak. Yana, harf va tovushlarning to'g'ri tahlili va savodxonlikni oshirish bola, ota-ona va o'qituvchidan kuch talab qiladi. Shuning uchun ham boladagi disgrafiyada o'z vaqtida payqab, logopedga murojat qilish kerak.

Umumiy maktabning boshlang'ich dasturi tuzilishida birinchi sinf bolasining birinchi o'quv yili so'nggida ravon o'qiy olishi hisobga olishgan. O'qishning tezligi, uni ifodaliligi, urg'uni to'g'ri qo'yilishi hammasi nazarda tutilgan.

O'qish ko'nikmasini o'zlashtirishdagi qiyinchilik shundaki, bunda bola harf va tovushlar birikmasini to'g'ri o'qiy olmagani uchun matnlarni ham umuman o'qiy olmaydi. Yuqorida aytilganidek, harf birikmalarini o'qiy olmaslik disgrafiya deyilsa, harflarni qanaqa tovush berishini bilmasa **disleksiya** deyiladi.

Disleksiyaning ilk ko'rinishlari maktabgacha bo'lgan davrda ya'ni bog'chadagi maktabga tayyorlov darslarida harflarning turi va o'qilishi o'rgatiladigan mashg'ulotda yoki ota-onalar uyda bolasiga o'qishni o'rgatayotgan vaqtda ko'zga tashlanadi. Shu narsa ayon bo'ladiki, bola harflarni adashtiradi, ularni xechqanaqasiga o'zlashtira olmaydi, o'qishni o'rganish jarayonida oqsaydi. Bu ko'pincha ota-onalarni jahlini chiqaradi, bunday paytda ular farzandlarini urshadi, jazolaydi, harflarni uzoq yodalshga majburlashadi. Bunday munosabat bolada mashg'ulotlardan qochish istagini uyg'otadi. Ba'zi bolalar qattiq qarshilik qilishadi va kitobni qo'liga olgisi ham kelmaydi, boshqalari esa ota-onasining talabiga passiv tarzda yondoshishadi. O'qish ko'nikmasini o'zlashtirishda qiyinchilik sezadi, yig'laydi, kitobga qaragisi kelmaydi, asabiy va notinch bo'lib qoladi. Boladagi bunday o'zgarishlardan ota-ona muammo nimadaligi haqida o'ylashi kerak va logopedga murojat qilishlari lozim.

O'zlashtirmovchilik va matematik tasavvurlar yetishmovchiligi - Hisob kitob mashqlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri shuki, bola o'nlik sonlardan yuqorisiga o'tganda sonlar turkumini tushunishga qiynaladi. Odatda bunday buzilishning asosida fazoviy tasavvurning yaxshi rivojlanmagani yotadi. Bunday buzilishni o'z vaqtida payqash muhimdir. Bunday bolalar bolalikning ilk yillarida o'ng taraf bilan chap tarafni, jo'nalish kelishiklarini adashtiradi, quyoshcha, odamchani rasmni chiza olmaydi, LEGO o'ynamaydi. Maktabgacha bo'lgan yoshning so'ngida yoki 1-sinfda hisob kitobni o'zlashtirish vaqtida birinchi o'nlikdan yasalgan sonlar tarkibini tushunmaydi. Ko'pincha bolaga o'nlikdan uyog'ini hisoblash va tushunish juda qiyin bo'ladi. Ko'paytiruv va bo'luvni yaxshi o'zlashtiradi, tushunmasdan yodlab olish bilan hisobni adashtirishi mumkin, shuning uchun ko'paytiruv jadvalidan foydalanadi. Odatda tushunmasdan yodlab olish hisob-kitobni dastalabki kezlarda hisob-kitob tizimini tushunmasligini

o'rnini bosib turadi. Keyinchalik esa bunday o'quvchilar fizika, kimyo fanlarini o'rganishga qiynalishadi, ular tarixiy sanalarni adashtiradi, ayniqsa miloddan avvalgi va keying davrlarni adashtiradi.

Tavsiyalar: maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda kombinatsiyaga oid faoliyatda, qurilmalar bilan ishlashda kamchilik ko'zga tashlanganda, sabablar aniqlanib, bolaga yordam berilishi kerak. Kuniga 10-20 daqiqa og'zaki hisob-kitob bilan shug'ullanish lozim, toki bola aniq tushunib olmaguncha. Asosiy e'tibor sonlar tarkibiga qaratilishi lozim (ikki xonali va uch xonali sonlarga).

Matematikani o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin. Shunday bolalar borki, ular masalani qanday yechishni va uni javobini miyada yechib olish keraklini darrov ilg'ab olishga qiynalishadi. Bunday bolalarga yaxshilab o'zlashtirib olishlari uchun elementar mashqlar berish kerak. Ko'pchilik bolalar maktabdagi mashg'ulotlarda masalani yechish usulini va ma'nosini tushunishmaydi, shuning uchun ham ular uyda yana takrorlab chiqishlariga to'g'ri keladi. Bu kabi masalalarni bir necha bor turli mashqlar bilan ishlab ko'rishi kerak, toki o'sha turdagi masalani yechish yo'lini butunlay egalamaguncha yoki nazorat ishida va mustaqil ishlarda o'zi mustaqil yecha oladigan bo'lmaguncha. Aks holda bola matematika darslaridan qo'rqib qoladi. Qo'shimcha mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, bolada masalalarni mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqisni uyg'otsin. Yaxshisi, vazifalarni ovoz chiqarib, aytib yechish kerak, shunda bolaga tushunarli bo'ladi. Birgalikda muhokama qilish bolaga masalani shartini tushunishida yordam beradi.

Ko'pchilik bolalar masalani yechish usulini o'zlashtirolmaydi, shuning uchun o'zini qiynab o'tirmay, duch kelgan javobni aytadi. Bu bilan bolada "fikrlar dangasaligi" rivojlanadi, bola o'zini aqliy qobiliyatini mashq qildirmaydi. U o'ziga o'zi matematika qiyin fan degan g'oyani singdiradi. Bola o'ylashni o'rganishi kerak, tavakkal qilib topishni emas, qiyinchilik bilan natijaga erishsa, masalani yechishda hursandchilikka erishadi. Agarda birorta o'quv qo'llanma tushununarsiz bo'lsa, o'sha vazifani o'quvchi yecha oladigan bo'lishi uchun barcha masalalarni mustahkamlash tavsiya etiladi [30].

O'zlashtirmovchilik va bilimlar zahirasiining cheklanganligi - Bolalar ta'limidagi qiyinchiliklar kam ma'lumotga ega ekanligi tufayli ham bo'lishi mumkin. Ma'lumotlilikning yetarlimasligi – bu bolaning atrofidagi odamlar haqida, ular bilan o'zaro munosabatlar to'g'risida kam bilishi. Atrofida o'rab turgan narsalar haqida bilishi uning aqli, bilimi va ko'nikmasiga bog'liqdir. Bilim va mahoratning yetarlimasligi bolani shunga olib boradiki, bola maktabda o'zlashtirishda uning diqqati, xotirasi, ishga kirishuvchanligi past bo'ladi va natijada yaxshi o'qiy olmaydi. 6-7 yoshli bolaning hammasi ham qaysi shaxarda yashashini, ota onasining ismi sharifini, ota-onasining nima bilan shug'ullanishini bilmaydi. Baxtga qarshi, shunday holatlar ham bo'ladiki, 1-sinf bolasi hafta kunlarining nomlarini, oylarni, ob-havoning issiq sovuqligini ayta olmaydi, yoshiga mos she'r va ertaklar bilmaydi [9].

Tavsiyalar: Boladagi umumiy bilimdonlikni kengaytirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Bolaning yoshiga hos mahorat va ko'nikmalar o'z vaqtida o'rgatilinishi.
2. Anglashning faollashuvini kuchaytirish.
3. Bola egallagan bilimlarini foydalana olishi uchun nazoratni kuchaytirish.
4. Bolaning dunyoqarashini nafaqat didaktik materiallar (stolda o'ynaladigan o'yinlar, kitoblar, diafilmlar) bilan, balki turli hayotiy vaziyatlar bilan ham kengaytirish lozim.
5. Ko'rgan multfilmi haqida jiddiy o'ylab ko'radigan savollarga javob berishi va ko'rgan narsasi haqida aytib berishi, keyin esa mustaqil vazifalar bajarishi kerak.
6. Bolaga o'qishni, yozishni va hisoblashni o'yin shaklida o'rgatish lozim.
7. Bolaning shaxsiyatida bir tomonlama rivojlanishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Asteniya – charchash, ozib ketish darajasining oshib ketish holati, uzoq jismoniy va aqliy zo'riqishga bo'lgan layoqatni yo'qolishi. Astenik holat bolada butun organizmdagi kasalliklarni (surunkali, tonzillit, gastrit, tsistit, bronxit, kolit, turli allergik kasalliklar va revmatizm) uzoq davom etganda kuzatiladi. Organizmning umumiy kasalliklari ta'sirida miya tuzilishining faoliyati kuchsizlanadi. Surunkali kasalliklar miyani oziqlanishini va tomirlar tonusini

buzilishiga olib keladi, kislorodli och qolishga olib keladi. Bundan tashqari, kasallik jarayonida turli zaharli moddalar yasaladi, bu esa yosh bola miyasini shakllanishini zaharlaydi. Aqliy faloiyatni vaqtincha yetishmasligi: bu bolani intellektni susaytirmaydi, balki uning (xotira, diqqat, ishchanlikning) mahsuldorligini buzadi.

Bunday holat bolani umumiy maktabda dasturni o'zlashtirishiga halaqit beradi, xattoki ta'limning aniq tartibli dasturi ham unga tushunarsizdek tuyiladi, keyinchalik jismoniy holatni butunlay yaxshilanishi bolani o'zlashtirishida qiyinchlik tug'dirmaydi. Jismoniy holatni yaxshilanishida afsuski, ishlash qobiliyati va mahsuldorlik hamma vaqt ham butunlay tiklanmaydi. Bolaga shug'ullanishida xotiraning zaiflashuvi halaqit beradi, ayniqsa tushunmay yodlab olishni buzilishi yaqqol seziladi. U geografik nomlarni, tarixiy sanalarni, chet tilidagi yangi so'zlarni, she'r va grammatik qoidalarni yodlashga ko'p vaqtini sarflaydi. Darsga yaqin yodlab olgach, o'quvchi doskada yoki mustaqil ish bajarish jarayonida birdaniga yodlangan materialni qisman yoki butunlay esidan chiqarib qo'yadi. Shunday qilib, bolada yodlashda qiynalishidan tashqari, o'rganganlarini eslab qolish jarayoni ham buziladi.

Ko'pincha, astenik holatdagi bolalar yozuvi alohida harflar tizimini eslatadi. Ular harflarni tushirib qoldiradi, so'zdagi bo'ginlar joyini almashtirib qo'yadi. Bola biroz dam olgach, xatolarini ko'ra boshlaydi. Harflarni tushirib qoldirish va bo'g'inlarni joyini almashtirish aqlan ishlash jarayonida ishtirok etadigan ruhiy holatning va diqqat funksiyasining boshqa buzilishlari bilan bog'liq.

Bolalarda diqqat turg'un emas. Odatda bola vazifani yaxshi va to'g'ri bajarish bilan boshlaydi, biroz vaqt o'tgach chalg'iydida, birolam xatolar qiladi, oxirgacha yozmaydi, yoki kerakli gaplarni qoldirib ketadi, ba'zan darsdan butunlay chalg'ib ketadi: o'qituvchining tushuntirganlariga quloq solmaydi va tushunmaydi. Xatolar soni dars so'ngiga kelganda 3-4 barobarga ko'payadi. Matematik vazifalarda bola oddiy xatolarga yo'l qo'yadi: masalani yechishda belgilarni yoki butun bir qatorni qoldirib ketadi, yoki birini boshqasini o'rniga yozib qo'yadi. Dars davomida vazifaning ortib borishi natijasida bolaning aqliy salohiyati sekinlashadi. Nazorat ishining oxiriga kelib bola zerikib ketadi, diktantning oxirgi qatorini yozmaydi,

matematikadan ham o'z variantining so'ngi vazifasini bajarmaydi. Ayniqsa ishchanlik qobiliyatini zararlashda unga halaqit beradigan bir necha faktorlar sabab bo'ladi: qo'shni partadagilar bilan gaplashish, to'g'ri ishlash haqida turli tuman savollar berish. Ko'pincha shunday holat ko'zga tashlanadiki, bunda bola qo'shni partadagini vazifasini ishlashga yordam berib, ozinikiga kuch topolmay qoladi. Shuning uchun ham o'qituvchi nazorat ishi davomida kasal bo'lib yaqinda tuzalib chiqqan bolaga xech kim halaqit qilmasligini nazorat qilishi lozim. Astenik holatdagi bolalarning ishchanlik qobiliyati bir tekisda bo'lmaydi va ko'pincha bu aqli, hissiy va harakatli vazifalarga bog'liq bo'ladi. Dars so'ngida, hafta yakunida mashg'ulotlardagi mahsuldorlik birdaniga tushib ketadi, ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, bunda bola xatto oddiy vazifa haqida bosh qotirishga ham holi qolmaydi.

Hissiy zo'riqish natijasida ya'ni ijobiy yoki salbiy hissiyotlar ta'sirida ishchanlik qobiliyati tushib ketadi.

Bolalarda astenik holat ifodalanganda ko'pincha chidab bo'lmas turli fiziogen qo'zg'atuvchilar kuzatiladi: baland va tasodifiy tovushlar, yorqin ranglar. Shunday qilib, mashg'ulotlarda ishchanlik qobiliyatining kam bo'lishiga qaramay, dars davomida sinfga yaxshi muhit olib kiring, chunki bola tanaffus vaqtida shovqindan charchagan bo'ladi. Ko'p bolalar tetelvizorning baland ovozigacha ham zo'rg'achidaydi. Xatto radio va televizorning past ovozi ham bolada bosh og'rig'ini chaqirishi mumkin. Astenik holatidagi bolalar psixikaning tipologik holati bilan bog'liq holda turli og'irliklarni yengib o'tadi. Bunday og'irliklardan so'ng bola shu darajada charchaydiki, xattoki oxirgi darsga kelib partada uxlab qolishi ham mumkin, boshqalari esa aksincha, tanaffuslarda rosa yugurgani uchun battarroq charchaydi.

Tavsiyalar: agar bola tahsil olishida qiynalayotganidan arz qilsa nima qilish lozim? Hammasidan oldin, to'g'ri muolaja yozib beradigan nevroptologga yoki bolalar psixiatrigha murojat qilish lozim. Kunduzlari uxlashni tashkillashtirish lozim. Bola darslarini jadval bo'yicha o'qishi kerak: 20 daqiqa mashg'ulot, 10 daqiqa harakatga keltiruvchi faollashtiruvchi mashq. Musiqa ostida ritmik gimnastika juda

foydali. Qiyin darslarni (odatda yozuv mashg'ulotlari) yengil darslar bilan almashtirib turish kerak. Og'zaki darslarni maktabga ketishdan oldin takrorlash maqsadga muvofiq. Yomon xotira bo'lgan taqdirda kitobga qaragan holda ovoz chiqarib bir necha bor qaytarish lozim. Jadval bo'yicha darslarni o'tish lozim, aks holda bolaning diqqati faollashmaydi.

Ko'p kasal bo'ladigan bolalardagi ulgurishning pastligi nafqat xotiraning buzilishi bilan, balki diqqatning barqarorsizligi, ishchanlik qobiliyatining buzilishi, charchash va toliqish bilan bog'liqdir. Qoldirilgan darslarning to'planib borilgan og'irligi ham tartibsizlikni oshiradi. Agar bola mahsuldor ishlolmasa, qoldirilgan darsni qanday va qaysi yo'l bilan o'rnini to'ldirish krak, degan savol bizni qiynashi mumkin. Aynan shuning uchun ham soatli jadval bo'yicha ishlash lozim. Mashg'ulot o'tgan darsni qisqa takrorlash bilan boshlash zarur, so'ngra qoldirilgan darsni bir qismini o'tib berilishi va yangi mavzu tushuntirishi kerak. Agar barcha materiallar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lsa, unda qoldirilgan darsdan boshlash lozim. Ammo shuni yodda tutish kerakki, dars o'sha aytilgan jadval bo'yicha o'tilishi va orada tanaffuz qilinishi kerak. Asteniya bor holatda shifokorning ruxsati bilan hafta o'rtasida yoki so'ngida qo'shimcha dam olish kuniga ega bo'lishi yoki dars soatlarini qisqartirish maqsadga muvofiqdir. Bu zarurat nafaqat bola dasr oxirlab borayotganda uning aqliy salohiyati tushib ketishidan emas, balki uning o'zi ham materialni o'zlashtirishga qiynaladi va vazifalarni ko'payishi astenik holatni kuchaytiradi va ishchanlik qobiliyati uoq vaqt davomida tiklanmaydi. Surunkali jigar, oshqozon-ichak trakti, diabet va pankertit kasalliklari dieta bo'yicha ovqatlanishga muhtoj va shuning uchun uzun kun davomida guruhga qo'shilolmaydi. Yana, bola dam olish kunini televizor oldida o'tkazib, qoldirilgan darslarini o'zlashtirmasa, qo'shimcha dam olish kunidan foyda yo'q. Bunday vaziyatda bolaga sanatoriyali maktab-internat belgilanishi lozim. Muolaja va aqliy mahsuldorlik rejimi natijasida bolaning umumiy jismoniy ahvoli yaxshilanadi, charchoq, horg'inlik kamayadi, miya hujayralarining potensialligi oshadi [40].

Psixologik jarohat olingan vaziyatda odamlar bilan o'zaro munosabatlar va hayot sharoitlaridan kelib chiqib, bolani o'rab turgan narsalar uni salbiy

emotsiyalarga va havotirlanishga tushushiga sabab bo'ladi. Bu vaziyat bolani ishchanlik qobiliyatini pasaytirib yuboradi, havotirlanish esa o'qishdan, tengqurlari bilan muomalaga kirishishidan chalg'itadi. Psixologik jarohat olinish holatiga turli sharoitlar sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlaridan biri ota-onasining o'rtasidagi kelishmovchilik: bola ularning janjaliga guvoh bo'lib qoladi va otasi hamda onasi haqida qayg'ura boshlaydi, ulardan xech birini yo'qotishni istamaydi. Ayniqsa boladan kimni ko'proq yaxshi ko'rishini, kim bilan qolishini afzal ko'rishini so'raganda psixologik jarohatlar yuzaga keladi. Ko'pincha ota onalar ularning qarshisida tirik odam turganini, uning tuyg'ularini, hislarini va havotirlanishlarini unutishadi, va yana ba'zan bola yig'lamasa uni bu holatdan ta'sirlanmayapdi deb noto'g'ri hisoblashadi. Bunday hafagarchilik natijasida bolaning uyqusi buziladi, kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi: qayg'udan badjahilga aylanadi. Bola darsda o'tirib bir nuqtaga tikilib o'tiradi, oilasida kecha bo'lib o'tgan janjal haqida o'ylaydi. U o'qituvchining tushuntirganlarini eshitmaydi, diqqat qilmaydi, ishchanlik qobiliyati tushib ketadi. O'ziga kelganda esa darsda gap nima haqida ketayotganini darrov bilmaydi. Ko'pincha bunday o'quvchi huddi zerikkandek o'tiradi.

Psixologik jarohat olish natijasida bolaning xotirasi buzilishi mumkin. U uzoq vaqt bir mavzu ustida o'tiradi va lekin diqqatini bir joyga jamlolmaydi va materialni yomon eslab qoladi. Agar psixologik jarohatlanish holati uzoq vaqt davom etsa, kasallikning undanda kuchliroq formasi nevrasteniya paydo bo'ladi. Nevrasteniya asosida ozib ketish tuhiy jarayoni yotadi, bolaning uzoq vaqt havotirlanishida paydo bo'ladi. Ozgina harakat qilsa ham bola ham ruhan, ham hissan tez charchab qoladi. Hissiy zo'riqish ulgurish layoqatini tushirvoradi va avval ozon tuyilgan fanlarni o'zlashtirish qiyinlashadi. Darslarni qilishni boshlagach, 15-20 daqiqadan so'ng o'quvchi shuni tushunib yetadiki, diqqatini bir joyga jamlash qiyin, fikrlar tarqoq, kerakli qoidani yoki ko'paytiruv jadvalini eslay olmaydi. Daftarda bola anchagacha ilg'amaydigan noto'g'ri yechimlar, xatolar, qoldirib ketilgan sonlar paydo bo'ladi [18].

Agar yechim javob bilan solishtirilganda noto'g'ri chiqsa, hafa bo'ladi, lekin o'zining xatosini bilmaydi. Bunda bola zehni o'tkir b'lishi kerakligini, uning aqli mantiqiy fikrlashni tushunmaydi. Ta'limda halaqit beradigan narsa, aynan uzoq vaqtli mashg'ulotda tez charchab qolishidir. Ishchanlik qobiliyati ham biror yoqimsiz suhbatlardan so'ng, tengdoshlari bilan kelishmovchilikdan keyin tushib ketadi. Gap shundaki, psixologik jarohat natijasida ko'pincha bolaning hissiy holati azob chekadi. Bola osongina hafa bo'ladi, hafa bo'lishga nisbatan moyilligi yuqori daraga o'sadi. Har qanday mayda chuyda narsalar, yoqimsiz so'z yoki buyruq ohangidagi gap ham bolani qalbini yaralaydi. U yig'loqi, jahldor bo'lib qoladi, tanbeh berishlariga chidolmaydi. Uningcha, xech kim uni tushunmayotgandek tuyuladi. Biror aniq asos bo'lmasa ham, ba'zan bola uzundan uzoq yig'laydi, uni tinchlantirib bo'lmaydi. Bosh og'rishi boshlanadi, dasrlarda faol ishtirok etmaydi, diqqati va xotirasi yomonlashadi.

Ko'pincha psixologik jarohat olingan holatlar oilada ota-onasining biri yoki ikkalasining ham ichishi, uyda janjal ko'tarishi sabab bo'ladi. Bolalar bundan qattiq azob chekishadi. Ular qo'rqishadi, uxlolmaydi, vaqtida ovqatlanishmaydi, ko'pincha och yurishadi. Maktabda esa darslarda uxlab qoladi. Ularni darslarini xech kim nazorat qilmaydi, qiyin vazifalarda xech kim ularga ko'maklashmaydi. Diqqatlari tarqoq bo'lib, uzoq vaqt darsga diqqat qilolmaydi, o'rganganlarini esa tezda unitadi.

Psixologik jarohat olish holati maktabda ham yuz berishi mumkin. Konfliktlar turli sabablar va har xil odamlar bilan bo'lishi mumkin: o'qituvchilar bilan, sinfdoshlari yoki maktabdoshlari bilan. O'qituvchilar bilan konfliktlarni bo'lishida nafaqat o'quvchi aybdor bo'ladi, balki o'qituvchi ham ota-onalarning ham hissassi bor. Ba'zan ota-onalarning o'zlari farzandlari uchun sinfda psixologik jarohat olish holatini yaratadilar. Bunday holat farzandining bir tomonlama mavqesi ko'radigan otanalar bilan yuz beradi. Ular o'qituvchini farzandining qobiliyatini ko'rmayotganlikda va unga past baho qo'yayotganlikda ayblashadi. Bolasi haqidagi bunday fikr bolani yaxshi baho uchun harakat qilmay qo'yishiga sabab bo'ladi.

Tavsiyalar: Ota-onalarga sinfdagi vaziyatni o'zlaricha hal qilish tavsiya qilinmaydi, ayniqsa ular vaziyatni bir tomonlama muhokama qilishayotgan paytda.

Bunday konfliktli holat maktab direktori, psixolog hamda sinf rahbari bilan muhokama qilingani ma'qul.

Xozirgi kunda o'quvchilarning bilish faoliyatini faol, mustaqil, ijodiy tafa kkurini avj oldirish maktab ta'limining eng muxim vazifalaridan biriga aylani bormoqda. Demak, ta'limning asosi o'qituvchining o'quvchilarga yetkazadigan axborotini esda olib qolish emas, balki bu axborotni olish jarayondao'quvchilarning o'zlari aktiv ishtirok etishi, ularning mustakil fikr yuritishi, mustaqil bilim olish qobiliyatini, ma'lumotni oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim.

1.2 § Boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilarida bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar tahlili

Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida ham namoyon bo'ladi. O'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga harab *"Men yaxshi bo'laman"* emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholashini tushuna boshlaydilar. Boshlang'ch sinflarda o'zlashtirilmaslikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi. Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofida gilar unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bog'lanish o'z-

o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar [6].

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qigani uchun bolada sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bolalar rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. 10 yoshdagi o'quvchilar idroki, uning xatti-harakati, o'qish va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi va intilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirliги, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lemi kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshda bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi kabi tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi. Bu o'qituvchining mavjud kasbiy tajribani yangicha

yondashuvlar, ma'nolar, mazmun va texnologiyalar bilan boyitishga tayyorligining potensial shartidir.

So'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim va maxsus (inklyuziv) maktabi muammolarini muvaffaqiyatli qilish ancha keng xarakterga ega bo'ldi. Psixologik-pedagogik va falsafiy-ijtimoiy asarlardagi asosiy e'tibor maktab o'quvchilarining an'anaviy o'quv dasturlarini o'zlashtirishda va ta'lim muassasasi va uning tashqarisidagi ijtimoiy muhitga moslashishda doimiy qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilarning muammolariga qaratiladi. Hamma joyda, ta'lim bosqichlari ketma-ket o'zgarmay turib, o'qishga tayyor bo'lmagan (ya'ni ma'lum vaqt ichida ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyor bo'lmagan) maktab o'quvchilarining soni ko'paymoqda, boshlang'ich maktabga va undan yosh o'smirlarga, keyin o'smirlikka. Bolaning umumiy insoniy madaniyatga kirishini ta'minlaydigan muassasa sifatida maktab muammolari tahlili ancha keng taqdim etilgan. Ushbu tahlil asosida maktabning zamonaviy inqirozi, an'anaviy maktabning jamiyatdagi obro'sining pasayishi haqida xulosalar chiqarildi [23].

V.D.Shadrikov "Ta'lim falsafasi va ta'lim siyosati" (1993) kitobida maktabning hozirgi inqirozining quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- haqiqatdan voz kechish;
- bolaning individualligi, uning qobiliyatlari va rivojlanishining yo'qolishi.

Pedagogik jamoalarning har bir aniq o'quvchining muammolariga yetarlicha e'tibor bermasligi, bu muammolarning sabablarini tushunmasligi ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'quv ehtiyojlarini va o'quvchining individual tipologik xususiyatlarini hisobga olmagan holda qayta tashkil etishga yordam beradi.

Shunday qilib, so'nggi o'n yil ichida umumiy ta'lim maktablarida har xil nomdagi maxsus tuzatish sinflari ochildi: moslashuv, sog'liqni saqlash, pedagogik qo'llab -quvvatlash, tekislash, jadal rivojlanish, kompensatsion o'qitish va boshqalar.

Bunday darslarning asosiy maqsadi, o'quvchilar kontingenti, o'qitishning mazmuni va texnologiyasini aniqlamagan holda, umumiy ta'lim maktablari, ulardagi o'qitish samaradorligidan qat'i nazar, ularning sonini ko'paytiradi. Shu bilan birga, o'zlashtirmovchi maktab o'quvchilarini o'qitishning umumiy pedagogikasida yangi

yondashuvlarni izlash bilan bir qatorda, maxsus pedagogikada, bir necha yillardan, akademik muvaffaqiyatsizlikning muammolari va sabablarini har xil profilli mutaxassislar har tomonlama o'rganib chiqdilar: fiziologlar, psixologlar, defektologlar, o'qituvchilar. tajribachilar. Bu maxsus psixologiya va pedagogikada yangi yo'nalishning - aqli zaif bolalar psixologiyasi va pedagogikasining tug'ilishiga yordam berdi. O'zlashtirmovchi bolalarni o'qitish amaliyotini tahlil qilish va "xavf guruhlari" o'quv qiyinchiliklari bo'lgan bolalar tasnifining nazariy asoslanishi (K.S. Lebedinskaya, 1982; I.F. Markovskaya, 1990; A.O.Drobinskaya, 1993; M.N. toifalari (VI Lubovskiy, 1981; NA Nikashina, 1984; RD Triger, 1986; GM Kapustina, 1986; SG) Shevchenko, 1990; NA Tsypina, 1992; GI Jarenkov, 1989 va boshqalar) 1993 yilda umumiy ta'lim sharoitida o'qish qiyin bo'lgan bolalarni tuzatish va rivojlantirish ta'limi kontsepsiyasini ishlab chiqishga ruxsat bergan. Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligi tomonidan Rossiyaning barcha hududlarida joriy etish uchun tavsiya etilgan. Ushbu toifadagi bolalarni o'qitishning psixologik va pedagogik asoslarini aniqlash (V.I.Lubovskiy, 1981; N.A. Nikashina, 1984; R.D. Triger, 1986; G.M. Kapustina, 1986; S.G. Shevchenko, 1990; NA Tsipina, 1992; GI Jarenkova, 1989 va boshqalar). Ushbu Konsepsiyaga muvofiq, Rossiya Ta'lim Akademiyasi Tuzatish Pedagogika Instituti va Moskva Ta'lim Qo'mitasi Moskvadagi tuzatish va rivojlanish ta'limi darslari to'g'risida Namunaviy Nizomni ishlab chiqilgan. 1996 yilda Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligi umumta'lim maktabida tuzatish va rivojlantirishning boshlang'ich sinflari dasturlarini tasdiqladi. (Dasturlar VII tipdagi maxsus (tuzatuvchi) ta'lim muassasalari va tuzatish - rivojlantirish ta'limi sinflari. - M.: Ta'lim, 1996). Ushbu dasturlarning ikkinchi nashri 2000 yilda "Drofa" nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu dasturlarga muvofiq, "Boshlang'ich maktab" gazetasi ("Birinchi sentyabr" gazetasiga qo'shimcha) 1997 yil avgustdan boshlab barcha o'quv fanlari uchun ko'rsatma va tematik rejalashtirishni nashr qilib kelmoqda. Dasturlarni ishlab chiqqan mualliflar jamoasi Rossiyada birinchi marta o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalarni o'qitishning tayyorgarlik bosqichi uchun o'quv -uslubiy to'plamni yaratdilar. To'plamga savodxonlik, matematika, tashqi dunyo bilan tanishish va

nutqni rivojlantirishga tayyorgarlik bo'yicha qo'llanmalar (bosma asosli daftarlar va o'qituvchiga uslubiy tavsiyalar) kiradi. Qo'llanmalarni tuzatish -rivojlantirish ta'limining birinchi sinfda va ikkinchi sinfda o'quv materialini tahrirlashda qo'llash mumkin. Ta'limning boshlang'ich bosqichida bilim va g'oyalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun o'quv -uslubiy to'plam boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilari bor sinflarida ko'p yillar davomida sinovdan o'tkazilib, bolalarning bilim faoliyati va nutqining optimal rivojlanishini va o'qishning samaradorligini ta'minlaydi [24].

Turli xil ta'lim imkoniyatlari va ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini tabaqalashtirilgan o'qitish, o'quvchilarni uch oqimga bo'lingan. Umumta'lim maktabida bir qator ilmiy fanlarni chuqur o'rganadigan sinflar, eng qobiliyatli o'quvchilar uchun (gimnaziya va litsey sinflari) va o'zlashtirishi past yoki pedagogik qarovsiz bolalar (ota onasi bilan shug'ullanmaganlar). Umumta'lim maktabi sharoitida differentsial ta'lim tizimini tahlil qilish va baholashga kirmasdan, biz o'qituvchilar o'z yo'nalishlarini yo'naltirishga harakat qilishganini ta'kidlaymiz.

Ma'lumki, psixologlar va maktab o'qituvchilarining differentsial tashxisida malakasi yetarli emasligi sababli, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, shu jumladan ruxiy rivojlanishi sustlashgan, autizmli, nutqining og'ir buzilishi va boshqalar bo'lgan bolalar bunday sinflarga yuborilishi mumkin. Bunday sinflarda o'qitishning past samaradorligini kutish kerak edi (va amalda bu tasdiqlandi). Ko'p vaqt o'tmay, bu sinflar ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tenglashtirish sinflarini aniqlandi: boshlang'ich bosqichdagi ta'lim 1 yilga uzaytirildi, shundan so'ng maktab "xavfli" bolalarning ta'limini uzaytirishga majbur bo'ldi. An'anaviy dasturlar va darsliklarga muvofiq sharoitda o'qitish, albatta, kam o'qiydigan bolalar uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratdi, ammo o'quvchilar umumiy ta'lim qobiliyatini rivojlantirishda, ta'lim va bilim faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatishda muvaffaqiyat qozonishida yaxshi sharoit bo'lishi mumkin. Bunda nutq, hissiy-irodali va shaxsiy sohani normallashtirishda, faqat o'qitishda tashxis qo'yish va tuzatishga integratsiyalashgan yondashuv tamoyillari, shuningdek, ta'limning rivojlanish ta'limi va individualizatsiyasi tamoyillari yanada

samarali hisoblanadi. (LSVygotskiy, L.V. Zankov, Yu. .K. Babanskiy). O'qish qiyin bo'lgan bolalarga ta'lim berishni tashkil etishning yangi yondashuvi Rossiya Ta'lim Akademiyasi tuzatish pedagogikasi institutida ishlab chiqilgan va bir qator shaharlarda tatbiq etilgan umumiy ta'lim muassasalari sharoitida tuzatish va rivojlanish ta'limi kontseptsiyasida o'z aksini topgan va mamlakat hududlari (Moskva, Samara, Penza, Novgorod Velikiy, Ryazan, Vologda, Tyumen, Noyabrsk va boshqalar). Hozirda O'zbekiston ta'lim tizimida ham ishlar yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra har bir makab qoshida maktabga tayyorlov ochilishi belgilab qo'yilgan.

O'zlashtirishida qiyinchiliklarga uchragan bolalardan tashqari, ta'lim muassasalariga borishdan bosh tortadigan, pedagogik e'tiborsizlik darajasi yuqori bo'lgan bolalar, qochqinlar oilalari farzandlari, ko'chib kelganlar, shuningdek tabiiy ofatlar, texnogen ofatlar va boshqalar qurbonlarini ham inobatga olish juda muhim sanaladi. 2000 yil fevral - aprel oylarida RRS sinflarining tarkibini o'rgangan komanda (MCO) ma'lumotlariga ko'ra, sinflarida 15% ga yaqin RRS bolalar mavjud. Bu toifalar orasida ta'limning asosiy, bazadan yuqori va tuzatuvchi bosqichlarini o'zlashtira oladigan bolalar ham bor. Biroq, ularning barchasi psixologik, pedagogik va tibbiy -ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. RRS sinflarining tarkibi haqida gapirganda, biz bolalarning barcha variantlarini o'qish va maktabga moslashishda qiyinchiliklari bo'lgan bolalar toifasiga kiritamiz, bundan tashqari, qisman rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va pedagogik e'tiborsiz bolalar ham borligini ta'kidlaymiz. Shuning uchun RRS tizimining ikkinchi muhim sharti - bu o'quv rejalari va dasturlarining o'zgaruvchanligi deb ta'kidlab o'tganimiz yo'q va bu yerda bolaning o'zlashtirmovchi o'quvchilar tizimida qolish muddati masalasini muhokama qilish kerak. Har bir alohida holatda prognoz ko'p jihatdan buzilishlarning xususiyatiga bog'liq. Moskvaning Shimoliy-Sharqiy tumanidagi maktabgacha yoshdagi guruhlar va RRS sinflarining tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bolalarning 50-60% gacha miya-organik miya-organik asoratlanmagan va murakkab shakllari bor; 16 dan 25% gacha - bu boshqa uchta turdagi RRS: konstitutsiyaviy, somatogen va psixogen kelib chiqishi; 7 dan 12% gacha xorijiy tilli bolalar, bu yerda til to'sig'i tufayli o'qish qiyinchiliklari paydo bo'ladi; 6% dan ortiq

- nutq terapiyasi guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolalar; taxminan 10-12% - pedagogik ishga tushirildi. Bu bolalarning barchasi, agar ularning ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan pedagogik sharoitlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, "xavf guruhlari" ga tushib qolishi mumkin. Tadqiqotchilar (KS Lebedinskaya, G.V. Griбанova) ma'lumotlariga ko'ra, umumiy ta'limda muvaffaqiyat qozonmagan qiyin o'smirlarning katta qismi (60-70%) aqli zaif bolalardir. *Demak ta'lim tizimidagi ko'plab xatolarning barchasi ilk maktabga qabul qilish jarayonidan boshlanishi yaqqol ko'zga ko'rinib qolmoqda.*

Shunday qilib, ta'lim muassasalari bolalarni o'qitishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda maktabgacha ta'lim muassasalari va parallel xizmatlar (TPPK, diagnostika markazlari, psixologik va ijtimoiy xizmatlar markazlari) bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerak. Mutaxassislarning say -harakatlarini birlashtirish va viloyat, shahar, tuman (tuman) ning turli bo'limlari, tuzilmalari va tashkilotlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun sharoit yaratish nafaqat diagnostika masalalarini hal qilishga, balki, bolada mavjud bo'lgan sharoitlar, qiyinchiliklar, pedagogik muammolar malakasi, shuningdek, bu mutaxassislar ta'lim muassasasida (maktab doirasida) ishlashidan qat'i nazar, logoped, psixolog, defektolog, ijtimoiy o'qituvchi tomonidan haqiqiy yordam ko'rsatish muammolari yoki psixologik va ijtimoiy yordam markazida yoki TPPKda (doimiy idoralararo psixologik, tibbiy va pedagogik komissiya) nazorat qilib boriladi.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ijobiy ishlar yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida yetarlicha qayd etilgan. Belgilangan yo'nalishlar uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari oldiga yuksak vazifalar qo'ymoqda. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarni komil inson sifatida shakllanishlari uchun umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni yangi texnika va texnologiya bilan qurollantirish lozim ekanligi qayd etilmoqda. Ta'lim muassasalari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, ta'lim olish

uzluksizligini puxta va ixcham tizim sifatida ishlashini ta'minlash mumkin. Bunda ayniqsa, ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarining jismoniy, axloqiy va aqliy yetukligini ta'minlash vositalariga alohida e'tibor berish zarur. Shuning uchun bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta'limning ham obyekti, ham subyekti hisoblanmish o'quvchidan mustaqil tafakkurni va aqliy faollikni talab qiladi. Har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayon ota-onalar, o'qituvchi hamda o'quvchilar munosabatini ifodalovchi murakkab pedagogik tizim hisoblanadi [7].

Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, misollar, masalalar yechish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. 7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o'z rejalari, harakatlarining izchilligini so'z orqali tasvirlab beradilar. Rejalashtirish yordamida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi. O'quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib, bilish faoliyatining shakllanishida o'quv jarayoni muhim o'rin egallaydi. Misol uchun, bolada mantiqiy o'ylash talab etilmasdan turib uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasiz. 3-7 yoshli davrdagi bolalarning asosiy faoliyati quyidagicha:

- Predmetli o'rganish;
- Individual va predmetli o'yinlar, jamoaviy syujetli rolli o'yinlar;
- Individual va guruhlarda ijod;
- Musobaqa o'yinlari;
- Munosabat o'yinlari;
- Ro'zg'or mehnati.

Bolalarning bilish jarayonlarida ushbu o'yinlarning ahamiyati kattadir. Mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog'liq bo'lib inson

turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin tutadi. O'quvchilar bilish faoliyatining kengayishi, birinchi navbatda, ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, dalillar va xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishlari natijasida amalga oshadi. Pedagogika fanida rivojlanish va o'qitishning o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Dastlab, pedagoglar o'quvchilarning rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar. Ta'limning rivojlanish ta'sirini aniqlaganlaridan so'ng, ular bu ta'sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta'kidlaganlar. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo'yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyati yaxshi tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchi rivojlanishini jadallashtiradi.

Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta'limda faoliyatli, individual, tabaqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi. O'quv biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi. Biz o'quvchilar uchun yetakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilarda bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslik o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri o'quvchilarda muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining kengayishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishdan iborat. Bu o'quvchilar faoliyatlari orqali namoyon bo'lib bilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchining kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy

manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- bilish qiziqishlari;
- o'quv maqsadlari;
- hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik;
- yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj;
- intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik;
- shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar.

O'quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta'minlash uch yo'nalishga ajratilgan.

- na'munaga asoslangan taqlidiy;
- izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik;
- ijodiy bilish faoliyati.

Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor na'munalari asosida hosil bo'ladi. Ideal tarzda bo'lgani singari, predmetlilik asosida ham o'quvchilarni tirishqoq bo'lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o'qituvchi tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini mustaqil tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa bilish faoliyati hosil bo'lishining yuqori shakli sifatida muammolarni yechishning yangi, o'ziga xos usullarini izlash, o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin. An'anaviy ta'lim sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida tushuniladi.

1.3 § Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilarining bugungi kundagi axvoli

Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori

darajadarivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim.

Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin [13]. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan

kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalari, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi [14].

Baho o'quvchi o'zlashtirishiga ta'sir qiladimi? Birinchi sinf o'quvchisining har qanday intilishini qadrlash lozim. Dabdurustdan yomon bahosi bilan maktabga endigina qadam qo'ygan bolaning orzularini bir zumda yo'qqa chiqarishga hech bir o'qituvchining haqqi yo'q. Shuning uchun har bir bolaga individual yondashib, o'qish istagidagi barcha harakatlarini rag'batlantirish zarur. Bu borada joriy qilingan ball sistemasida baholash eng oqilona yo'ldir. Biroq birinchi sinf o'quvchisiga «1» baho emas, ball deb tushuntirsangiz-da, u baribir baho deb tushunadi. Shuning uchun har gal birinchi sinfni qabul qilganimda ularni maktab ta'limiga moslashgunlaricha baholamayman. Balki rag'batlantiraman. Ya'ni, gul «5», gulning yaprog'i — «4», shunchaki aylana — «3», uchburchak — «2»ni anglatadi. Rangli uchburchakni qo'lga kiritgan o'quvchimga bu uchburchak «ikki»ni anglatadi deb hech qachon izoh bermayman. Har bir predmet ball hisoblanishini, faqat ular yaxshi yoki sustroq javob berilganiga qarab turlicha bo'lishini tushuntirish zarur. Shuning uchun turli rangdagi aylana yoki uchburchak olgan bolalarni ham xafa qilmaydi. Uning o'rniga «gul»ni qo'lga kiritish istagida yaxshiroq harakat qiladi. 1- sinfda bolani ana shunday rag'bat usuliga o'rgatib, ikkinchi sinf boshidan raqamli baholashga ko'niktirish, ularning o'qishga bo'lgan ilk qiziqish va ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun xizmat qiladi. Baho o'qishga undashi kerak. Darsga tayyorlanmagan bolani yaxshiroq harakat qildirish, mas'uliyatni chuqurroq his

qilishi uchun ham har doim a'lo baho qo'yib bo'lmaydi. Har bir o'quvchini mehnatiga yarasha baholash kerak. Har qanday vaziyatda ham bola rag'batlantirib turilsa, tushkunlikka tushmaydi. Uning o'rniga xatolarini takrorlamaslikka tirishadi. Buning uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin: hafta mobaynida «to'rt» olmagan o'quvchiga yulduzcha sovg'a qilinadi. Agar birikkita «to'rt» olsa-da, bolaning intilishlari namunali bo'lsa, uni ham yulduzcha bilan taqdirlanadi. Bir oy oxirida 4ta yulduzcha, ya'ni har haftada yulduzcha olgan bolaga kitob sovg'a qilish ularga o'ziga xos motivatsiya beradi. Buni ko'rgan sinfdagi yaxshi yoki o'rta o'qiydigan o'quvchilar ham qiziqadi, havas qiladi va o'zlari ham qatorasiga rag'batlarni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Chunki o'quvchi uchun o'qituvchining e'tibori hamma narsadan ustun turadi [22].

O'qituvchi har bir darsda imkoni boricha butun sinf jamoasini baholay olishi kerak. Hech bo'lmaganda, bolaning darsga qanday tayyorgarlik ko'rganini nazorat qila olishi darkor. Shundagina har bir o'quvchi berilgan vazifaga jiddiy qaraydi. Yana sinfdagi yetakchi bolalarda o'zlarini ko'rsatish, birinchi bo'lish istagi yuqori bo'lganligi uchun ham ular topshiriqlarni dars jarayonining o'zidayoq bajarib, tezda baholanishni xohlaydilar. Biroq bunda o'zlashtirish sayoz bo'lib qolishi mumkin. Chunki tez qabul qilingan ma'lumotlar inson xotirasidan qisqa muddatda o'chib ketadi. Shuning uchun, boladagi har bir qilingan harakatni hurmat qilgan holda unchalik faol bo'lmagan bolalarni ham bahslarga, savol- javoblarga ko'proq jalb qilish kerak. Ularni ham fikri teran, har qanday vaqtda vazifaga yechim izlaydigan faol o'quvchiga aylantirishda o'qituvchi ter to'kishiga to'g'ri keladi. Shu mehnat ortidan esa, albatta, sinf jamoasining ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga erishiladi. Bola olayotgan har bir bahoda ota-ona omilining o'rnini bo'lishi zarur. Ayniqsa, har bir qo'yilgan «2» dan ota-ona xabar topishi, kerak bo'lsa, o'qituvchi tomonidan aytilishi kerak. Bu o'quvchining yo'l qo'yayotgan kamchiligini to'g'rilashga va ruhining tushib ketmasligiga xizmat qiladi. Ota-onalarning bu o'rinda bolani asossiz ravishda «nimaga ikki olding?» deb koyiyverishidan hech qanday naf yo'q.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun tanqid yoqimsiz narsadir. Xuddi shu kabi «ikki» ham u uchun muvaffaqiyatsizlik, ojizlik belgisidek tuyuladi. Shu bois

birinchi sinf o'quvchisiga «2» baho qo'yilmasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki har bir past bahoni ham bolaning ko'nglini o'ksitmagan holda, ehtiyotkorlik bilan qo'yish zarur. Sababi birgina baho o'quvchining umumiy bilim olish darajasiga ta'sir qilmay qolmaydi. Yoxud matematikadan misol yechishga qobiliyati zo'r bolani she'rni ifodali o'qib bera olmaslikda ayblab, u fandani «5», bu fandani «2» qo'yilsa, o'quvchida fanlarni ajratish hissi paydo bo'ladi. Bora-bora shu bola «adabiyotdan mening iqtidorim yo'q», deb o'ziga- o'zi xulosa chiqarishi mumkin. Bu esa gullamoqchi bo'lgan gulni uzib olish bilan barobardir.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ijobiyishlar yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi —Ta'lim to'g'risidagi Qonunda, yetarlicha qayd etilgan. Belgilangan yo'nalishlaruzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari oldiga yuksak vazifalar qo'ymoqda. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarni komil inson sifatida shakllanishlari uchun umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni yangi texnika va texnologiya bilan qurollantirish lozim ekanligi qayd etilmoqda. Ta'lim muassasalari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, ta'lim olish uzluksizligini puxta va ixcham tizim sifatida ishlashini ta'minlash mumkin. Bunda ayniqsa, ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarining jismoniy, axloqiy va aqliy etukligini ta'minlash vositalariga alohida e'tibor berish zarur. Shuning uchun bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta'limning ham obekti, ham subekti hisoblanmish o'quvchidan mustaqil tafakkurni va aqliy faollikni talab qiladi. Har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayon ota-onalar, o'qituvchi hamda o'quvchilar munosabatini ifodalovchi murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Bolalarning bilish faoliyatlari hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta'limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o'quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o'quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. SHu bilan bir qatorda, o'quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o'quv jarayonlarida muayyan

topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik atamalar lug'atida bilishga qo'yidagicha ta'rif beriladi:

- 1) ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi;
- 2) borliq va uning obektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash jarayonidir.

Demak, bilish faoliyati jarayonida o'quvchi taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi. Ma'lumki, bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. *Masalan*, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining qulog'imizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil – biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi. Demak, **sezgi** deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz. Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi [12]. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan restseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik

jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.
2. Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi.

Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz. Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga etkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat —mos aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir. Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, misollar, masalalar echish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. 7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o'z rejalari, harakatlarining izchilligini so'z orqali tasvirlab beradilar. Rejalashtirish yordamida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi. O'quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib bilish faoliyatining shakllanishida o'quv jarayoni muhim o'rin egallaydi. Misol uchun, bolada mantiqiy uylash etilmay turib uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasiz. 3-7 yoshli davrdagi bolalarning asosiy faoliyati quyidagicha:

- Predmetli o'rganish;
- Individual va predmetli o'yinlar, jamoaviy syujetli rolli o'yinlar;
- Individual va guruhlarda ijod;

- Musobaqa o'yinlari;
- Munosabat o'yinlari;
- Ro'zg'or mehnati.

Bolalarning bilish jarayonlarida ushbu o'yinlarning ahamiyati kattadir. Mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog'liq bo'lib inson turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin tutadi. O'quvchilar bilish faoliyatining kengayishi, birinchi navbatda, ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, dalillar va xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishlari natijasida amalga oshadi. Pedagogika fanida rivojlanish va o'qitishning o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Dastlab, pedagoglar o'quvchilarning rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar.

Ta'limning rivojlanish ta'sirini aniqlaganlaridan so'ng, ular bu ta'sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta'kidlaganlar. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo'yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyati yaxshi tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchi rivojlanishini jadallashtiradi. Ta'lim nafaqat yakunlangan turkumlarda quriladi. Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta'limda faoliyatli, individual, tabaqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi.

O'quv biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi. Biz o'quvchilar uchun yetakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilarda bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslik o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim

o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri o'quvchilarda muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining kengayishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishdan iborat. Bu o'quvchilar faoliyatlari orqali namoyon bo'lib bilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchining kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- bilish qiziqishlari;
- o'quv maqsadlari;
- hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik;
- yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj;
- intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik;
- shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar.

O'quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta'minlash uch yo'nalishga ajratilgan.

- namunaga asoslangan taqlidiy;
- izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik;
- ijodiy bilish faoliyati.

Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor namunalari asosida hosil bo'ladi. Ideal tarzda bo'lgani singari, predmetlilik asosida ham o'quvchilarni tirishqoq bo'lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o'qituvchi tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini mustaqil tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa bilish faoliyati hosil bo'lishining yuqori shakli sifatida muammolarni echishning yangi, o'ziga xos usullarini izlash, o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin. An'anaviy ta'lim sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida

tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o'tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o'quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar. O'qituvchi o'quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Didaktik yondashuvlar. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan.

2. Psixologik yondashuv. O'quvchilar o'zlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilish faoliyatidan foydalanadilar. Bilish jarayonining barcha darajalarini tahlil qilishdan ko'zda tutilgan maqsad – uning turlarini aniqlashdan iboratdir. Chunki bilish turlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish usuli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bois, bilish faoliyatini o'zlashtirishning turlarini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. O'quvchining bilish faoliyati muayyan ko'rinishlar, shakllar, vositalar, usullar, yo'llar, metodlar yordamida amalga oshiriladi. SHunga ko'ra, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Tabiiy sharoitdagi maktab amaliyotida bilish faoliyatini turli-tuman ko'rinishlarda vujudga keltirish.

2. O'quvchi bilish faoliyatining hosil bo'lish turlari, ko'rinishlari, usullari, shakllari, metodlariga ega bo'lishi.

3. O'qituvchilar bilish faoliyati turlarining yagona tasnifi mavjud emas. Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo'naltirilgan maxsus o'quv vaziyatlari amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni umumlashgan ko'nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy

xarakterdagi o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishda o'quv vaziyatlari o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. O'quv faoliyati shunday vositaki, uning yordamida o'quvchi o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga intiladi. O'quvchi faoliyati o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatishdir. O'rganish o'quvchida o'z xatti-harakatiga ishonch tug'diradi. Mazkur ishonchni egallash boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bunga o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Bugungi kunga kelib aksariyat o'quvchilar o'z bilim zahiralari kengaytirishga intilmayotganiga guvoh bo'lishi mumkin. Ular darslarda faol ishtirok etmaydilar, o'quv jarayonidan tashqaridagi erkin faoliyatiga ko'proq qiziqadilar. Buning sabablarini izlash va bartaraf etish pedagogikaning ustuvor masalalaridandir. O'quvchilar maktabga borar ekanlar, o'qituvchilar va sinfdoshlarining mehrmuhabbati, e'tiborini qozonishiga harakat qiladilar.

Muammoning yechimi uzluksiz ta'limning o'ta muhim masalalaridan biridir. Bugungi kunda —o'quvchi nima uchun sinfdan-sinfga o'tgan sari o'qishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi?, —Bunga kim aybdor, o'qituvchimi yoki o'qitish metodlarimi?, —O'quvchining bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda o'qituvchi qanday o'rin egallaydi?, —O'qituvchi qanday qilib, nima yordamida o'quvchilarda o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshira oladi, bunda qanday vositalardan foydalanish kerak? kabi savollar o'z echimini kutmoqda. Pedagoglarning e'tirof etishlaricha, o'quvchining muvaffaqiyatlari uning o'quv-biluv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan ruhlengandagina vujudga keladi. O'quvchi mehnati jarayonida quvonchini his qilsa, qiyinchiliklarni bartaraf etganligidan faxrlansa, o'quv jarayoniga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi.

Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga o'quv mehnatidan quvonish vaziyatini yaratishi kerak [17]. O'quvchilar qalbida g'urur va o'z muvaffaqiyatlariga loyqlik hissini tarkib toptirish lozim. Muvaffaqiyat har bir o'quvchi erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi. Mutaxassislar o'quv vaziyatida o'quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o'rin egallashini ta'kidlab kelmoqdalar. Agar o'quvchiga o'quv vaziyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyati berilsa, u hayotda ham to'g'ri yo'l tanlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv vaziyatini vujudga keltirish o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o'quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom mayllar va qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar.

II bob. Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari

bilish jarayonlari rivojlantirish.

2.1 § Boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilarini rivojlantirish

bo'yicha dastur

Boshlang'ich sinf o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni tadbiq etilishi, o'quvchilar imkoniyatiga moslashtirilgan bo'lib, interfaol metodlar- bu o'quvchilarning faolligini oshirish, hamkorlikda ishlash, yetakchilik, mustaqil fikr bildirish, matematik tasavvurini va tez fikrlash jarayonini rivojlantirish, analiz va sintez qilish jarayonlarini jadallashtirish kabi ko'nikmalarining shakllanishiga qaratiladi. Interfaol metod qo'llashda, darslarda tenglikka asoslangan ishtirokchilar bo'lishi ko'zda tutiladi.

O'qituvchi yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rish davrida, albatta turli metodlar va metodik usullarni tanlaydi. Bu esa darsning didaktik maqsadini belgilab beradi. Bu o'quvchilarning aqliy va amaliy faolligini yuqori darajasini ta'minlashga zamin yaratib beradi. Har bir darsda, mavzudan kelib chiqqan holda metodlarni to'g'ri qo'llash, o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtiradi va darsning ilmiy-nazariy darajasini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni tanlash maxsus maktab o'quvchilari imkoniyatlariga to'liq mos kelishi kerak.

Bu dasturning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini shakllantirish.

Vazifalari:

1. Emotsional zo'riqish darajasini kamaytirish;
2. Bolalarda o'ziga bo'lga ishonchni oshirish;
3. O'zining "yaxshi" tomonlarini ko'ra olish qobiliyatini rivojlantirish;
4. Suhbatdoshlik ko'nikmalarini shakllantirish;
5. Odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmasini rivojlantirish;

Rivojlantirish predmeti: kichik yoshli maktab bolalarida bilish jarayonlarini rivojlantirish, o'zini-o'zi baholash, tengqurlariga tenglashtirish.

Rivojlantirish usullari: etyudlar, o'yinlar, mashqlar, artterapiyaning usullari, trening.

Guruh bo'lib ishlash shakli: dasturni amalga oshirishga ketadigan umumiy vaqt – 8 hafta, mashg'ulotlar haftasiga 2 marta, jami 15 ta mashg'ulot, mashg'ulotlarning davomiyligi 40 daqiqagacha cho'ziladi.

Dastur strukturasi:

1. Motivatsion bosqich (2 ta mashg'ulot)
2. Rekonstrukcion bosqich (9 ta mashg'ulot)
3. O'yinli bosqich (4 ta mashg'ulot)

Motivatsion bosqich (2 ta mashg'ulot)

Maqsad:

1. Ishonchli munosabatni yaratish
2. Bolalarni mashg'ulotga qiziqtirish.

1-Mashg'ulot:

Maqsadi: Inshonchli munosabatni yaratish;

-Odatga ko'ra salomlashish:

-Aylana bo'lib turiladi, hamma bir birini qo'lini ushlab, hamma aytadi: "Hayrli kun".

-Chigilni yechish (razminka)

I. Asosiy qism. (Koptokcha)

Maqsadi: emotsional zo'riqishni olib tashlab, bolalar o'rtasida do'stona aloqani o'rnatish.

1. Mehribon hayvonlar.

Maqsadi: umumiylikni his qilishni rivojlantirish.

2. Hayot haqidagi hikoyalar

Maqsadi: ifodali harakatlarni rivojlantirish; boshqa odamlarning emotsional holatini tushunish qobiliyatini va o'zining holatiga adekvat munosabatda bo'lsini rivojlantirish.

3. Sehrli o'rindiq.

Maqsadi: o'ziga bo'lga bahoni oshirishni osonlashtirish; bolalar bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilash.

II. O'tgan mashg'ulotlarni tahlil qilish.

III. Odatga ko'ra xayrlashish: yana aylana bo'lib turiladi va hamma bir birga "Kuningizni yaxshi o'tkazing" deydi.

2 – mashg'ulot.

Maqsadi: bir biriga ishonish hissini rivojlantirish; Emotsional kayfiyatiga yordamlashish; o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish;

-Odatga ko'ra salomlashish.

-O'tgan darsni tahlil qilish

-Chigalni yechish (razminka)

Asosiy qism: (Boshqalarga tabassum hadiya qiling).

Maqsadi: bolalarni emotsional kayfiyatiga ko'maklashish.

1. Kemacha.

Maqsadi: o'ziga bo'lga bahosini oshirishga ko'maklashish.

2. Qo'ng'iz

Maqsadi: agressiv bolalarni kamroq jizzaki bo'lishga o'rgatish, ularga o'zlarini hafa qilish yaxshi emasligini o'z ko'zlari bilan ko'rish imkoniyatini berish.

3. Axlal chelak.

Maqsadi: o'ziga bo'lgan bahoni oshirishga ko'maklashish.

I. O'tgan darsni tahlil qilish.

II. Odatga ko'ra xayrlashish

Reproduktiv bosqich (9 ta mashg'ulot):

Maqsadi:

1. O'ziga bo'lgan bahosini oshirishga imkoniyat tug'dirmoq;

2. Bolalardagi emotsional zo'riqishni yo'qotishni osonlashtirish;

3. Boshqa odamlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi imkonini rivojlantirish;

4. Kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;

1-mashg'ulot

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga ko'maklashish. O'zi haqida pozitiv o'ylash qobiliyatini rivojlantirish. O'ziga bo'lgan bahosini oshirishda ko'maklashish

- I. Odatga ko'ra salomlashish
- II. O'tgan darsni tahlil qilish
- III. Chigillarni yozish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Koptokni tutib ol

Maqsadi: bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va boshqa odamlarga nisbatan ishonch hissini shakllantirish.

2. O'zingni kuchli tomonlaringni ayt

Maqsadi: o'zi haqida yaxshi narsalarni o'ylash qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarni oldida o'z haqida gapirishga uyalmaslikni o'rgatish.

3. Quyunchalar va filchalar

Maqsadi: Bolalarga o'zlarini kuchli va mehribon odan sifatida his qilishlariga imkon berish va o'ziga bo'lgan bahosini oshirishda ko'maklashish.

- IV. O'tgan dars tahlili.
- V. Odatga ko'ra xayrlashish.

2-mashg'ulot

Maqsadi: o'z kuchiga bo'lgan ishonchni va kelajakka bo'lgan intilishni shakllantirish; o'ziga bo'lgan bahosini oshirishda ko'maklashish;

- I. Odatga ko'ra salomlashish
- II. O'tgan darsni takrorlash
- III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Qo'shningga ayt

Maqsadi: ijobiy emotsional kayfiyatni yaratish

2. Men kelajakda rasmi

Maqsadi: kelajakka tegishli o'zining kamchiliklarni yengish imkoniyati borligini bolaga tushuntirish va o'z kuchiga bo'lgan ishonchni va kelajakka bo'lgan intilishni shakllantirish;

IV. O'tgan darsni tahlil qilish;

V. Odatga ko'ra xayrlashish.

3-mashg'ulot

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, guruh bilan jipslashish layoqati, O'ziga bo'lgan bahosini oshirishga ko'maklashish;

I. Odatga ko'ra salomlashish

II. O'tgan darsni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Juda yaxshi

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ishonchini oshirish

2. Do'stlik ko'prigi

Maqsadi: Guruhij jipslashishda ko'maklashish; O'zining harakatlarini boshqalarniki bilan uyg'unlashtirish, Nafaqat o'zini baholashni, balki do'stlarini ham baholashni o'rganish;

3. Gapni tugat

Maqsadi: O'ziga va o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshirish.

IV. O'tgan darsni takrorlash

V. Odatga ko'ra xayrlashish

4- mashg'ulot

Maqsadi: O'zini ijobiy baholashni rivojlantirish; O'zining his-tug'ularini ifodalshda ko'maklashish; O'z kuchiga bo'lgan ishonchni rivojlantirish;

I. Odatga ko'ra salomlashish

II. O'tgan darsni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Mayda toshlar sovg'a qil

Maqsadi: bir-birlariga nisbatan do'stona munosabat o'rnatishida ko'maklashish, o'ziga bo'lgan ijobiy bahoni rivojlantirish.

2. To'g'ri yechim

Maqsadi: O'zining his-tug'ularini ifodalashda ko'maklashish;

3. kuchli tomonlaringni ayt

Maqsadi: o'zi haqida ijobiy fikrlashishda ko'maklashish va boshqa odamlar oldida uyalmasdam o'z fikrini ayta olishini rivojlantirish;

IV. O'tgan darsni takrorlash

V. Odatga ko'ra xayrlashih

5- mashg'ulot

Maqsadi: "Ijobiy fikrlar"ni rivojlantirish; O'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirishda ko'maklashish;

I. Odatga ko'ra salomlashish

II. O'tgan darsni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Men kuchli va men ojizman

Maqsadi: "Ijobiy fikrlar"ni rivojlantirish;

2. Rolli o'yinlar

Maqsadi: O'ziga va o'zining kuchiga bo'lgan ishonchini rivojlantirishda ko'maklashish;

3. Ko'prik

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish.

IV. O'tgan darsni takrorlash

V. Odatga ko'ra xayrlashih

6- mashg'ulot

Maqsadi: O'zini ijobiy baholashni rivojlantirish; O'ziga bo'lgan ishonchini oshirish; O'z kayfiyatini adekvat tarzda ifodalay olish ko'nikmasi

I. Odatga ko'ra salomlashish

II. O'tgan darsni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Men sherxonman

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ishonchini oshirish;

2. Do'sti bilan uchrashish

Maqsadi: boshqa odamning emotsional holatini tushunishida ko'maklashish va o'z kayfiyatini adekvat ifodalash, ifodali harakatning rivojlanishi.

3. Doiradan chiqishning yo'lini topish

Maqsadi: qiyinchiliklar oldida qo'rquvni yo'qotishda ko'maklashish.

IV. O'tgan dasnini takrorlash

V. Odatga ko'ra xayrlashish

7 - mashg'ulot

Maqsadi: O'ziga bo'lgan bahosini oshirishda ko'maklashish; Atrofdagilarning kayfiyatini his qilish va birga qayg'urishni o'rganish;

I. Odatga ko'ra salomlashish

II. O'tgan dasnini takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Yelkanli kema

Maqsadi: o'ziga bo'lgan ijobiy bahoni rivojlantirish.

2. Teatr

Maqsadi: emotsional zo'riqishni yo'qotish, o'zini ifodalashiga bolalarga imkon berish.

3. Hissiyotlarni mashq qildirish

Maqsadi: Atrofdagilarning kayfiyatini his qilish va birga qayg'urishni o'rganish;

IV. O'tgan dasnini takrorlash

V. Odatga ko'ra xayrlashish.

8 - mashg'ulot

Maqsadi: O'zinning holatini nazorat qilishni o'rganishni rivojlantirish;

O'z kayfiyatini his qilishni o'rganish, Xursandchilik hissini rivojlantirish.

- I. Odatga ko‘ra salomlashish
- II. O‘tgan darsni takrorlash
- III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

- 1. Holatni ijro etish

Maqsadi: O‘zinning holatini nazorat qilishni o‘rganish

- 2. ko‘z ko‘zga

Maqsadi: o‘z kayfiyatini his qilish ko‘nikmasini rivojlantirish

- 3. Tasvirla...

Maqsadi: xursandchilik xissini rivojlantirish

- IV. O‘tgan darsni takrorlash
- V. Odatga ko‘ra xayrlashish

9- mashg‘ulot

Maqsadi: O‘ziga bo‘lgan bahsini oshirish; O‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini ko‘tarish.

- I. Odatga ko‘ra salomlashish
- II. O‘tgan darsni takrorlash
- III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

- 1. Hayvonni tasvirla

Maqsadi: o‘zini o‘zi ijobiy baholashni rivojlantirishda ko‘maklashish.

- 2. Men uddalay olaman

Maqsadi: o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda ko‘maklashish

- 3. Xursandchilik

Maqsadi: bolalarga ularning har biri yagona va qaytarilmas ekanligini ko‘rsatish.

- IV. O‘tgan darsni takrorlash
- V. Odatga ko‘ra xayrlashish

O‘yinli bosqich (4 ta mashg‘ulot)

Maqsadi:

- 1. O‘rgangan ko‘nikmalarini va bilimlarini mustahkamlash;

2. O'ziga va boshqa odamlarga ijobiy munosabatni shakllantirish;

1-mashg'ulot

Maqsadi: O'zini o'zi ujobiy baholashini mustahkamlash

- I. Odatga ko'ra salomlashish
- II. O'tgan darsni takrorlash
- III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Mayda toshlar sovg'a qil

Maqsadi: bir-birlariga nisbatan do'stona munosabat o'rnatishida ko'maklashish, o'ziga bo'lgan ijobiy bahoni rivojlantirish.

2. Yelkanli kema

Maqsadi: o'ziga bo'lgan ijobiy bahoni rivojlantirish.

- IV. O'tgan darsni takrorlash
- V. Odatga ko'ra xayrlashish

2-mashg'ulot

Maqsadi: o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash

- I. Odatga ko'ra salomlashish
- II. O'tgan darsni takrorlash
- III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Gapni tugat

Maqsadi: o'ziga va o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshirishda ko'maklashish

2. Ko'prik

Maqsadi: O'zga bo'lgan ishonchini rivojlantirish

- IV. O'tgan darsni takrorlash
- V. Odatga ko'ra xayrlashish

3-mashg'ulot

Maqsadi: O'ziga bo'lgan ijobiy bahoni mustahkamlash

- I. Odatga ko'ra salomlashish
- II. O'tgan darsni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

1. Hayvonni tasvirla

Maqsadi: o‘zini o‘zi ijobiy baholashni rivojlantirishda ko‘maklashish.

2. Yelkanli kema

Maqsadi: o‘ziga bo‘lgan ijobiy bahoni rivojlantirish.

IV. O‘tgan dasrni takrorlash

V. Odatga ko‘ra xayrlashish

4-mashg‘ulot

Maqsadi: O‘zini adekvat baholashni shakllantirishni mustahkamlash.

I. Odatga ko‘ra salomlashish

II. O‘tgan dasrni takrorlash

III. Chigalni yechish (Razminka)

Asosiy qism:

Maqsadi: o‘ziga bo‘lgan bahosini oshirish

“Men o‘zimga ishonaman” nomli sertifikatni topshirish

IV. O‘tgan dasrni takrorlash

V. Odatga ko‘ra xayrlashish

**2.2 § Ta’lim klasteri muhitida boshlang’ich sinf o’zlashtirmovchi
o’quvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirish yo’llari**

Maktab dasturlarini o’zlashtirishda qiynalayotgan yoinki, ruxiy rivojlanishi sustlashgan bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy sharoit uning shaxs sifatlarini shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda, ijtimoiy tajriba jarayonida bola shaxsi rivojlanadi. Atrofdagi ijtimoiy muhit bola ijobiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini aniqlashga imkon beradi. Bu o‘rinda sistemali nutq buzilishiga (nutqga kirishishga qiynalayotgan) ega bolani o‘z xolatiga, shaxsiga munosabati katta ahamiyat kasb etadi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning emotsional doirasini rivojlanishiga ma’lum noxush omillar

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yaqin qarindoshlari bilan emotsional-ijtimoiy muloqotda sistemali nutq buzilishiga ega bolalarda muloqotga kirishuvchi odamlar diqqati, mimikasiga diqqat bilan qarash shakllanadi. Eksperimental psixologik tadqiqotlarda nutq buzilishiga ega bolalarni kattalar bilan muloqoti xarakterini o'rganadi. D.B.Elkonin odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllanishida syujetli-rolli o'yin rolini kattaligini alohida ta'kidlaydi. Inson munosabati asosini tashkil etuvchi normalar bolaning ma'naviy va ijtimoiy tuyg'ularini manbai sanaladi. Emotsiya va tuyg'u bevosita o'yin cheklanishlariga bo'ysunishda ishtirok etadi, bunda bola o'yin qoidalariga muvofiq o'z tuyg'ularini boshqarishga o'rganadilar. Bola o'z tuyg'ularini jilmayish, kulish, mimika, intonatsiya, harakatlar vositasida namoyon etishni o'rganadilar. Tuyg'ular tilini o'rganib, ular anglangan holda, o'z emotsiyalarini bayon qiladilar.

O'zlashtirish-tirmovchi bolalarning xotirasini rivojlantirish, mnemonika.

Mnemonika (mnemonika — eslab qolish san'ati) — sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ba'zi mnemonistlar o'zlashtirishda har xil sun'iy usullarni qo'llashga o'rganganligi tufayli katta hajmdagi, hatto ma'nosiz materialni tez esda olib qolish qobiliyatiga erishadilar. Lekin xotira samaradorligini tub ma'noda oshirish uchun sun'iy usullardan foydalanish ikkinchi darajali hamda yordamchi bo'lib hisoblanadi. Umuman, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma'nosiga tushunib yod olish ma'qul va samarali usuldir. IQ darajasi oshirish uchun esa quidagi ishlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Mantiqiy jumboq va testlarni, krossvordlar va sudokularni yechish. Ular bizning miyamizni mashq qilishga yordam beradi. Agar krossvord yoki boshqa mantiqiy masalani yechishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, javobga qarab, eslab qolish va shunga asoslanib, xulosalar chiqarish va keyingi safar ham shunga o'xshash masalani osongina yechishga ishonish zarur [15].

Xotirani kuchaytirish uchun mashqlar

Xotirani tiklash va uni saqlab turish uchun, ish joyida ham bajarsa bo'ladigan, har qanday yoshdagi insonlar uchun to'g'ri keladigan mashqlar bor. Samarali mashqlardan biri rasmlarni eslab qolish. Bunday mashqni o'tkazish uchun biror bir qiziqarli rasm olish kerak, unda 10 tadan 15 tagacha bo'lgan jism, hayvon va shu kabilar bo'lsin. Ushbu rasmga 60 soniya davomida diqqat bilan qarang va u yerdagi narsalarni eslab qolishga harakat qiling. 60 soniya o'tgandan keyin rasmni berkitib, eslab qolgan narsalaringizni ayting yoki ularni yozing. Bunday mashqni bolalar bilan o'yin sifatida o'tkazsangiz, bolaning kayfiyati ham ko'tariladi. Faqatgina bir rasmdan emas, 2-3 xil rasmlar bilan mashq qilganingiz yaxshiroq. Sanash – xotirani kuchaytirish uchun yaxshi mashq. Bu samarali usul bo'lib, 1 dan 20 gacha yoki 20 dan 1 gacha bo'lgan sonlarni parallel ravishda sanash kerak. Masalan: 1, 20, 2, 19, 3, 18 va hokazo. Har kuni ushbu mashqni takrorlab 10 ta songa oshirib boring va 100 gacha yeting. Mashqni uyqudan oldin bajarsangiz ancha samarali bo'ladi. Agar inson sonlarning boshqa tillardagi talaffuzini bilsa, parallel ravishda o'z tili va boshqa tilda sonlarni sanash xotirani tiklashga tezroq yordam beradi. Xotira uchun foydali usullardan biri “chapaqay” qo'l mashqini bajaring. Chapaqay insonlar uchun o'ng qo'lni, o'naqaylar uchun esa chap qo'lni ko'proq ishlatish talab etiladi. Bunday mashq bilan miyaning ishlashi kuchayadi va xotira tiklanishi yaxshilanadi. Xotira mashqlariga o'qiyotgan paytingizda ikkita bir xil kelgan harflarni topish va ularga e'tibor qaratish ham miyani ishlashga majburlaydi.

Sizga yaxshi tanish bo'lgan jism yoki xonaning ta'rifi haqida batafsil ma'lumot bering, u yerda joylashgan buyumlarni birma bir sanab o'ting. Bu ham miyaning turli xil qismlarini ishlatib xotira tiklanishiga yordam beradi.

Guruhli o'yinlar orqali bolani shaxslararo munosabatini rivojlantirish

“Kichrayuvchi gazeta” o'yini. Ushbu o'yin guruh ichida birlashishni o'rgatadi, bundan tashqari bu o'yinni mashg'ulot yakunida chiroyli tugatish uchun qo'llash mumkin.

Kerakli jihozlar: har bir guruhga bittadan gazeta qog'ozi; Vaqti: 10 daqiqa;

O`yinning borishi: qatnashuvchilarning xammasi 3 kishidan toki 6 kishigacha bo`lgan guruhlariga bo`linishadi va gazeta varoqlarini olishadi; Boshqaruvchi quidagicha izoh beradi: xar bir komanda berilgan gazetalarga turishingiz va “biz bir jamoamiz “ deyishingiz zarur. Sharti shundan iboratki “gazetalardan chiqmagan holda”. Shu tarzda o`yin davom etadi. Gazetalarni birin ketin kichraytirib buklanadi. Oxirida qolgan jamoa mustahkam deb topiladi.

“Leopold” o`yini. Bu o`yin muloqot usullarini shakllantirish, ishonch, har bir inson ko`ngliga yo`l topish usullarini o`ragatadi. Vaqt: 20 minut; Guruh qatnashchilari: 7 tadan 15 tagachon;

O`yinning borishi: Guruh ichida bir dona sichqon tanlab olinadi. Qolganlar esa mushuklar bo`lishadi. Sichqonni guruhdan 5 daqiqaga chiqaramiz. Mushuklarni xammasiga qog`ozda ismlar yozib tarqatiladi, ushbu qog`ozlarning bitasiga “Leopold” ismi yozilgan qolganlariga esa boshqa ismlar yoziladi. Mushuklarning vazifasi sichqonga yoqish va u bilan do`st bolishdir, bunda faqat Leopold chin do`st xisoblanadi. Barcha mushuklar sichqonga yaxshi gap gapirib uni oziga og`dirib olishi kerak. Sichqon kirib mushuklarni savol javob qilib ular orasida Leopoldni topishi kerak bo`ladi.

“Salfetkani ol” o`yini. Bu o`yin bolalarda bir birlarini tanishtirish yo`llarini shakllantirishga yordam beradi. Kerakli jihozlar: salfetkalar; Vaqti: 5 minut; Qatnashchilar soni: 6-20 ta odamlar.

O`yinning borishi: xar bir qatnashchi salfetkalar to`plamidan o`zi xoxlaganicha oladi. Qatnashchilar salfetkani olib bo`lganidan so`ng qancha salfetka olgan bo`lsa shuncha o`zi xaqida malumot aytadi. Ko`rsatma: bundagi berilgan ma`lumotlar aniq va ishonarli bo`lishi lozim.

“Ov” o`yini: bu o`yinni xarkatlantirish va tushuntirish maqsadida o`tkazish mumkin. Mashg`ulot o`tkaziladigan joy keng bo`lishi lozim. Vaqti 5 daqiqa; Qatnashchilar cheksiz.

O`yinning borishi: xamma keng maydonda turadi va boshlovchi qo`lidagi buyumni ushlaydi. Shu payt u Ov yoki UY degan so`zlarni aytadi. Agar boshlovchi Uy desa qatnashchilar sekin asta yurishadi, agar Ov desa qatnashchilar ikkitadan juft

bo`lib turib olishlari kerak agar turmasa u boshlovchi bo`lib qoladi. Izoh: bu o`yinni tezlashtirilgan tarzda olib borilsa qiziqarli chiqadi.

“Impuls” o`yini: bolalarni birdamlikka chaqiruvchi o`yin xisoblanadi: Vaqt: 5 daqiqa; Guruh qatnashchilari: cheksiz;

O`yinning borishi: qatnashchilar dumaloq bo`lib olishlari so`raladi va qo`llarini mahkam ushlashlari iltimos qilinadi. O`ng tarafdand birin ketin bir birlarini qo`llarini siqib impuls berishlari so`raladi. Bu ish qilingandan so`ng tezlashish kerakligi tushuntiriladi. So`ngra qatnashchilardan ikki guruhga bo`linish talab etiladi va ikki guruhning birlashgan joyga boshlovchi turadi va guruh tugagan joyga sovg`a qo`yiladi. Va aytiladi “xozir men qo`llarni tez siqaman kim tez impuls berib guruhni oxiriga olib borsa shu guruh yutishi aytiladi.

Ko`rsatma: bu soat strelkasi bo`yicha xamda vaqt ichida qilish mumkin.

“Atom va molekulalar” o`yini: guruhni xaraklantiruvchi o`yin. Vaqt: 5 minut; Qatnashchilar soni: cheksiz;

O`yinning borishi: Butun guruh dumaloq bo`lib turishadi. Shundan so`ng boshlovchi fizika qonunlarini eslatadi. Ya`ni issiqda tezlashish va sovuqda sekinlashish kerakligini. Agar boshqaruvchi 100 desa tez, 20 bo`lsa sekin xarakatlaniladi.. So`ngra o`yin boshlanadi. Boshlovchi aytgan raqamlarga qarab bolalar xarakatlanishadi va boshlovchi molekulalar 3 tadan birlashdi degan paytda ular 3 kishidan bo`lib birlashishlari kerak bo`ladi kimda kim 2 yoki 4 kishi bo`lib qolsa o`yindan chiqariladi. Shu tariqa o`yin davom etadi.

Izoh : bu o`yinni tezlashtirgan holda o`ynash yaxshi natija beradi.

“Sharqona bozor” o`yini: Bu o`yin bolalarda muloqotchanlik va va tanishuv qoidalarini shakllantiradi. Vaqti: 5 daqiqa;

Kerakli jihozlar kartochkalar.

Ko`rsatma: Bunda bolalarga 4 tadan qog`oz tarqatiladi. Va xar bir qog`ozga o`zi xaqida 1 tadan ma`lumot yozishi so`raladi va boshlovchi tomonidan berilgan qog`ozlar yig`ib olinadi va qartalarni arashtirgan kabi aralashtiriladi. Va qaytadan qatnashuvchilarga tarqatiladi. Qatnashuvchilardan o`rnidan turishi so`raladi. Va xar

bir qatnashchiga 4 tadan kartochkalar tarqatiladi. So`ngra qog`ozlardagi ma`lumotlarni kimga tegishli ekanligini toppish kerakligi aytiladi. Va vaqt beriladi.

“Mevali salat” o`yini: Bu o`yinda guruh bilan tanishish va nima yaxshi ko`rishini bilib olish shakllantiriladi; Vaqti: 5 daqiqa;

O`yinining borishi: qatnashchilar dumaloq bo`lib turib olishadi. Shundan so`ng birinchi turgan guruh ishtirokchilari birin ketin bittadan yoqtirgan mevasini aytadi. Birinchi 4 mevani qolgan guruh ishtirokchilari davom ettiradi. Boshlovchi guruh o`rtasiga turib mevalardan birini aytadi va shu mevani nomini olgan mevali shaxslar o`rin almashtirishadi. Masalan; olma, gilos, o`rik, shaftoli. Agar boshlovchi mevali salat desa xamma qatnashchi o`rin almashtiradi. Bu o`yin tezashtirgan holda o`tkazilsa yaxshi natija ko`rsatadi.

“Uch savol” o`yini: Bu o`yin bolalarni yanada aktiv bo`lishga chaqiradi. Kerakli jihozlar: qog`oz va qalamlar. Vaqti: 10- 20 daqiqa, Qatnashchilar: 6-20 kishi;

O`yinining borishi : xamma o`quvchilar dumaloq bo`lib turib olishadi. Xamma o`quvchilarga boshlovchi tomonidan tushutiriladi. Tasavvur qilin sizning oldingizda xamma savollarga javob beruvchi kitob turibdi. Siz faqat uchta savol berishingiz mumkin. Siz shu savollarni qog`ozchalarga yozing. Xamma ishtirokchi savollarni yozadi va boshlovchiga beriladi. Va almashiladi, so`ngra almashiladi. Mashg`ulot davomida malumotlar berib boriladi. Mashg`ulot oxirida savollarga javob olganligi aytiladi.

“Taksi” o`yini : bu bolalarni muloqot qilishga chorlaydi.

Vaqti: 10 daqiqa; Qatnashchilar: 6-20 daqiqa;

O`yinining borishi: Boshqaruvchi qatnashchilarni juft bo`lib turishini so`raydi. Va tushuntiradi: sizlar kech bo`lganda kinoda chiqdinglar va sizlardan 10 m nariga taksi to`xtadi. Siz iloji bo`richa tezroq uyga ketishingiz kerak. Faqat bitta inson taksiga chiqishi mumkin. Sizni vazifangiz juftingiz bilan kelishishdir. Kelishilgan xolda kimdir ketishi kerak.

Izoh: bunda boshqa vaziyatlarni xam qo`llash mumkin.

“To`rt devor” o`yini: Bu o`yin bolalarni olingan ma`lumotni amalda qo`llashda yaxshi natija beradi. Eslash qobiliyatini shakllantiradi; Kerakli jihozlar: 4 dona A4 format qog`ozi. Qog`ozlar orqasiga “men roziman”, “men uncha rozi emasman”, “rozi emasman”, “umuman rozi emasman”, Bundan tashqari bu narsalarga rozi insonlar ro`yhati xam so`raladi. Vaqti: 10-15 daqiqa;

O`yinning borishi: So`zlar yozilgan “men roziman”, “men uncha rozi emasman”, “rozi emasman”, “umuman rozi emasman” qog`ozlar devorning tarflariga ilinadi. Xar bir devorga bittadan ilinadi. Boshlovchi ma`lumotlar va savollar beradi. Qatnashuvchilar o`zlarini fikrlarini bildirgan xolda yozuv yozilgan tarafga o`tadi. Bunda xar bir qatnashchi o`zining nima uchun u yerga o`tganligini aytadi va savol javob o`tkaziladi.

“So`zni top” o`yini. Sinf guruhlarga bo`linadi va xar biri guruhga birinchi bo`ginni yozilgan, keying bo`g`in o`rniga nuqtalar qo`yilgan kartochkalar beriladi. Guruhlar qancha ko`p so`z topsalar shuncha ball to`plab boradilar. Masalan, kartochkalarda quyidagi misol.

Ki.... (javobi: kino kitob kiyik va boshqa sozlar)

“Quvnoq kartochka” o`yini. Maqsadi. Xushomadni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: koptok.(ruchka yoki ip); Vaqti: 5 minut.

O`yinning borishi: xamma qatnashchilar dumaloq bo`lib turadilar va koptokni olib unga complement sifat aytiladi. So`ngra o`yinni tezlashtirish maqsadida bir birimizga koptokni otamiz .

“Vaxolanki” o`yini. Stressni yo`qotish, ishchanlik qobilyatini oshirish maqsadida foydalaniladi. Kerakli jihozlar: qogoz va ruchkalar. Vaqti: 15 daqiqa.

O`yinning borishi: trener xamma ishtirokchilarga qog`oz tarqatib muommolar yozib berishlari so`raladi. Bunda maxfiylik alohida o`rinni egallaydi. So`ngra varoqlarni aralashtirib ularni qaytadan qatnashchilarga beradi va uni ularga yechish yo`llarini izlashga undaydi vaqt beradi. Xamma gap eshitilganidan so`ng muommolar yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Izoh; bu o'yinni shu muommoni yaxshi tomonini ko'rsatish yuzasidan xam ko'rish mumkin. Xar bir fikr aytilayotganda "Vaholanki" so'zi aytilishi shart.

"Zinapoya" o'yini. Maqsadi- qatnashchilarga o'zini baxolashni o'rgatadi. Kerakli jihozlar: qogoz va ruchka. Vaqti 10 daqiqa.

O'yinning borishi: qatnashchilarga 10 ta pog'onali zinaning rasmi chizish aytiladi. So'ngra trener qatnashchilardan zinaning qaysi pog'onasidaligingizni tasavvur qilib belgilang deb aytiladi. Vazifa bajarilgach trener qatnashuvchilar bilan suhbat olib boradi.

"Figurali qurilmalar" o'yini. Maqsad guruhni jipslashtirish va xamfikirliklarni shakllantirish, zarur paytda qaror qabul qilish uchun xarakat qilishni o'rgatadi. Vaqti 15 minut.

O'yinning borishi: qatnashchilar tartibsiz ravishda xona bo'ylab aralashib yuradilar. Boshlovchining buyrug'I bo'yicha ko'zlarini yumadilar va boshlovchi aytgan geometrik figura shaklida saflanishga xarakat qilishadi, doira, uchburchak, kvadrat, zig-zag. Ko'zini ochib yuborganlar o'yindan chiqadilar. Saflanish tugagach, boshlovchining buyrug'iga ko'ra ko'zlar ochilib natijada nima xosil bo'lgani ko'riladi.

Izoh. Qatnashchilardagi qiyinchiliklar so'raladi va vaziyatdan qanday chiqqanliklari so'raladi.

O'zlashtirmovchi bolalarning tafakkurini rivojlantirish

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Quyidagi namunalar maktab o'qituvchilarining boshlang'ich sinf darslarini turli xil usullardan foydalanilgan holda tashkil etishiga yordam beradi. Bu didaktik materiallar va o'yinlardan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy foydalanishi mumkin.

«Qaysi son yo'q»

Didaktik topshiriq: 20 gacha bo'lgan son qatori haqidagi miqdoriy tushunchani mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: son qatorini tahlil qilib, o'zi yo'q son bilan qo'shni sonlarni ajratib tashlab, o'sha sonni aytish.

O'yinning borish: o'qituvchi boshlovchi vazifasini bajaradi. — Men sonlarni qatorasiga yozib boraveraman, sizlar diqqat bilan qarab o'tiringlar, biron joyi noto'g'ri bo'lsa, aytasizlar, — deydi. O'qituvchi doskaga quyidagicha qilib sonlarni yoza boshlaydi: 10, 11, 12, 13, 14, 16 va hokazo. Bolalar tushirib qoldirilgan sonni darhol payqaydilar va o'qituvchi «yodidan chiqardi», deb o'ylaydilar. Chaqirilgan o'quvchi xatoni «tuzatadi» — doskada qaysi raqam «tushirib qoldirilgan» bo'lsa, o'sha yerdan boshlab yozilgan narsalarni o'chirib, o'sha yerdan boshlab yozib ketadi (yoki nima yozilishi kerakligini aytadi). Misol istalgancha o'zgartirilishi mumkin, masalan, 10 dan boshlab, 11, 12, 9, 13 va hokazo deb yozish mumkin. Bolalar raqamlar to'g'ri yozilmaganini sezaдилar, o'qituvchi ulardan qaysi son qaysi son ketidan yozilishi kerakligini so'rab oladi. Sinfdagi o'quvchilarga baravariga hisoblatish mumkin, bunda o'qituvchi raqamlarni ko'rsatib turadi.

Didaktik o'yin: «Jimjitlik»

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: aniq buyumlarni «xayolda» sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko'rsatish.

O'yinning borishi: o'qituvchi boshlovchilik vazifasini bajaradi. O'qituvchi:

— Bolalar, «Jimjitlik» o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko'rsataman. Siz ularning sonini topshingiz kerak bo'ladi. Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.

— Yo'q, bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo'l ko'tarish kerak. O'qituvchi bolalarga doira va cho'plarni sanatadi.

— Endi men sizlarga narsalarni ko'rsataman. Sizlar ovoz chiqar- masdan sanab, qancha bo'lganini barmoqlaringiz bilan ko'rsatasiz. O'qituvchi 4 ta qo'g'irchoqni ko'rsatganda bolalarning hammasi to'rtta barmog'ini ko'rsatadi. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-e'tibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.

O'qituvchi:

— Barakalla, hammangiz to'g'ri hisobladingiz. Endi men sanoq cho'pni bir qo'limdan ikkinchi qo'limga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo'lganini ko'rsatasiz. Bolalar o'qituvchining harakatlarini kuzatib, sanashadi va 10 ta barmog'ini ko'rsatishadi.

O'qituvchi:

— Endi kvadratlarni sananglar, — deydida, taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo'yadi. Bolalar sanashadi va 6 ta barmog'ini ko'rsatishadi. Bu o'rinda bolalarning birinchi 6'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi. Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmayr «xayolda» sanash ko'nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdahiga erisha olmaydilar, jim o'tirishni talab etuvchi o'yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e'tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo'ladi. Keyingi darsda o'yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug'iladi [21].

Son tarkibini mustahkamlovchi o'yinlar.

Ko'pchilik o'yinlar eng qiyin matematik bog'lanishlardan biri-son tarkibining bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'maklashuvchi ajoyib vositalardan hisoblanadi. Dasturga muvofiq, birinchi o'nlikdagi son va raqamlar bilan dastlabki tanisha boshlangan paytdayoq bolalar son tarkibini o'qib olishlari lozim.

Shuni ham aytish kerakki, bu vazifa ular uchun hamma vaqt ham oson bo‘lavermaydi, chunki buning uchun bolalarda sonlarning tarkibini farq qilishga asoslangan tahlil, tafakkuri yaxshi mashq qildirilgan bo‘lishi talab etiladi. O‘ quvchilarning son va raqamlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishlarining o‘zi bilan ish bitmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, son va raqamlarni, bu tarzda eslab qolish yetti yashar bolalar uchun ham xarakterlidir. O‘qituvchi ishining murakkabligi ham ana shundadir. Materialni puxtaroq o‘zlashtirish va aniqlashtirish uchun «Teatr», «Nima o‘zgardi?» kabi maxsus o‘yinlar o‘tkazish yaxshi natija beradi [16].

«4 soni va raqami»

Didaktik o‘yin: «Nima o‘zgardi?»

Didaktik topshiriq: 4 soni tarkibining turli usullarini mustahkamlash. O‘yin topshirig‘i: bolalarning turgan joylarini eslab qolish, ularning joy almashganlarini bilish (ya‘ni 4 soni tarkibining turli ko‘rinishiga doir yozilish usulini ko‘rsatish). O‘yinni boshlashdan oldin og‘zaki hisoblash mashqi o‘tkaziladi. Bolalar masala o‘ylab topishadi. Masalan, Karim «Bitta daraxt bor edi, yana uchta daraxt o‘tqazildi, endi daraxtlar 4 ta bo‘ldi» deydi. «Ikkita mashina turgan edi, yana ikkita mashina ularning yoniga kelib to‘xtadi— deydi Rahim, — endilikda mashinalar soni 4 ta bo‘ldi». O‘qituvchi bu bolalarni doskaga chaqirib, ular aytgan narsalar «xayollarida» qanday joylashtirilgan bo‘lsa, o‘sha narsalarni xuddi shunday tartibda jadvalga joylashtirishni taklif qiladi. O‘qituvchi: «4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin?» — deb so‘raydi. Bolalar uzoq o‘ylanib qolishadi. Nihoyat ulardan biri 4 raqamini ko‘rsatadi. So‘ngra o‘yin boshlanadi. O‘qituvchi 4 nafar bolani chaqirib, ularni bir safga qo‘yadi. Keyin o‘quvchilardan biriga bolalarning safda qanday turganliklarini diqqat bilan ko‘rib olishini so‘ngra sinfdan chiqib turishni buyuradi. O‘qituvchi bolalarning birijii alohida, uchtasini esa yonma-yon qo‘yadi. Tashqariga chiqqan bola kirib keladi. U o‘zgarishni ko‘rgach: «Uch o‘quvchi bir joyda, bittasi alohida turibdi», — deydi.

— Jami qancha? — deb soʻraydi oʻqituvchi.

— Toʻrt nafar, — javob beradi oʻquvchi.

— Demak, toʻrt sonini qanday hosil qilish mumkin.

— Uchga birni qoʻshish bilan.

Oʻqituvchi doska oldiga boshqa oʻquvchini chaqiradi. U ham safda turgan bolalarga bir nazar tashlab, tashqariga chiqadi. Qaytib kirgach: «Dastlab chap tomonda uch kishi, oʻng tomonda bir kishi turgan edi, endi esa har ikkala tomonda ikkitadan kishi bor», — deydi.

— Bunga qanday erishildi? — soʻraydi oʻqituvchi.

— Uchta boʻlib turganlardan biri yakka turgan bolaning yoniga oʻtib olibdi.

— Demak, deydi oʻqituvchi, - 4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin ekan?

— Ikkiga ikkini qoʻshib, — javob beradi oʻquvchi. Soʻngra uchinchi oʻquvchi sinfdan chiqib turadi. Oʻqituvchi uch bolani bir joyda, bittasini esa alohida turishini aytadi. Sinfga qaytib kirgan oʻquvchi yuz bergan oʻzgarishni aytadi:

— Avval ular ikki kishidan turishgan edi, endi esa bu yerda bir tomonda bir kishi ikkinchi tomonda esa uch kishi boʻlib qolibdi.

— Qaysi tomondagilar koʻpchilikni tashkil etadi? Mana bu tomondagilarmi? Toʻgʻri. Demak, 4 soni yana qanday hosil boʻlar ekan?

— Birga uchni qoʻshish bilan. Soʻngra oʻqituvchi butun sinfga murojaat qilib:

— 4 soni qanday hosil boʻladi? — deb soʻraydi. Koʻpchilik oʻquvchilar javob berish uchun qoʻl koʻtaradilar. Chaqirilganlar toʻgʻri javob beradilar:

— Toʻrtta birdan, uch bilan birdan, ikki bilan ikkidan, bir bilan uchdan. Oʻyin jonli va qiziqarli oʻtadi. Alohida-alohida soʻrash natijasida doskaga chaqirilgan oʻquvchilarnigina emas, sinfdan oʻtirgan boshqa oʻquvchilarning ham toʻrt sonining tarkibini yaxshi tushunganlari aniqlanadi. Oʻyin besh minut davom etadi

2.3 § Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida interfaol metodlarning darslarga tadbiq etish

Mamlakatimizda ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz tomonidan, balki butun jahonda e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda, davlatimiz rahbari tomonidan, ijtimoiy yordamga muhtoj, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ham, juda kata e'tibor berilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida, shuningdek, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, to'g'ri kasb tanlashlarida juda katta ishlar olib borilmoqda. Bilamizki, ta'lim jarayoni- bu o'quv materialini mazmunini yoritishga yordam beruvchi va mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarda nazariy va amaliy bilimlar majmuini o'zlashtirishga yordam beruvchi, ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan jarayondir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini, zamonaviy ta'lim metodlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlash, o'z navbatida har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars shaklini to'g'ri tanlagan holatda, o'quvchilarning turli faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish, bevosita o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi [25].

Interfaol metod deb-o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini, o'quv axborotlarini o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga, shuningdek, o'qitish maqsadlarining to'la qonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasidir.

Interfaol metodlarni boshlang'ich sinf o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi, o'quvchilar imkoniyatiga moslashtirilgan bo'lib, interfaol metodlar- bu o'quvchilarning faolligini oshirish, hamkorlikda ishlash, yetakchilik, mustaqil fikr bildirish, matematik tasavvurini va tez fikrlash jarayonini rivojlantirish, analiz va sintez qilish jarayonlarini jadallashtirish kabi ko'nikmalarining shakllanishiga qaratiladi. Interfaol metod qo'llashda, darslarda tenglikka asoslangan ishtirokchilar bo'lishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rish davrida, albatta turli

metodlar va metodik usullarni tanlaydi. Bu esa darsning didaktik maqsadini belgilab beradi. Bu o'quvchilarning aqliy va amaliy faolligini yuqori darajasini ta'minlashga zamin yaratib beradi. Har bir darsda, mavzudan kelib chiqqan holda metodlarni to'g'ri qo'llash, o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtiradi va darsning ilmiy-nazariy darajasini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni tanlash maxsus maktab o'quvchilari imkoniyatlariga to'liq mos kelishi kerak.

Quyida o'zlashtirmovchi bolalar uchun maktabda noan'anaviy o'qitish jarayonida samara beradigan interfaol metodlarning bir necha usullarini ko'rib chiqamiz:

Kichik guruhlarda ishlash metodi. O'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishiga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Bu metodning afzalligi: O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi; Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi; Vaqtni tejash imkoniyati mavjud; Barcha o'quvchilar jalb etiladi; O'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi [64]

Klaster metodi

Maqsadi: o'zlashtirmovchi o'quvchilarni erkin fikrlashga va o'z og'zaki nutqi orqali fikrini bayon qilishga, bilimlarni esga tushirish va mustahkamlashga, mavzu bo'yicha yangicha va o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalari rivojlantirishdan iboratdir. Qo'llanilishi: o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan matematika darslarida, yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladi. Yakka tartibda har bir o'quvchi, o'zining fikrlarini qog'ozga yozadilar. Berilgan vaqt

ichida, yozishdan to'xtamagan holatda yangi fikrlarni ifoda etishi va o'zaro aloqadorligini ko'rsata bilishi kerak. Klasterni ular turli xil ko'rinishda ifoda etishlari mumkin, masalan: moychechak guli, quyosh, daraxt va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Guruh tartibida esa, ular 2-3 ta kichik guruhchalarga bo'linib, birgalikda qog'ozga jamoa tarzida ishlashadi. *Yumaloqlangan qor*. Bu usul har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq ta'rif topishga imkon beradi, o'zlashtirmovchi o'quvchilarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni o'rgatadi. Qo'llanilishi: O'qituvchi bunda qog'ozni yumaloqlab qor yasaydi. Matematika darsida og'zaki misollar yoki turli oddiy matematik topishmoqlar orqali o'quvchilarga murojaat qiladi va bitta o'quvchiga yumaloqlangan qorni otadi. Bu usul o'quvchilarni tez fikrlashga, og'zaki nutqini rivojlantirishga, matematik tasavvurlarni shakllanishiga yordam beradi.

Charxpalak metodi. Bu usul o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. Bilamizki, boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Har bir dars jarayonida xoh u matematika bo'lsin, o'qish yoki ona tili yoki boshqa fan bo'ladimi didaktik o'yinlarni tashkil etish eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yindan muntazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy sharoitni, bu esa o'quvchilarning dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni mustaqil o'zlashtirishiga, ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularning yashirin imkoniyatlari va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi [60].

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini o'quvchilarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar o'quvchining his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xususiyatini tarkib toptiradi. O'quvchilar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar va o'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar. Didaktik o'yinli darslarni o'zlashtirmovchi o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi avval sinfdagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, ular muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng ommaviy o'yinlarga tayyorlashi kerak. Chunki, o'qishda qiynalayotgan o'quvchilar didaktik o'yinli darslarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, sinf jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi shart:

- didaktik o'yinli darslar o'quv dasturida qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi;
- barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odobxloq normalariga mos kelishi;
- o'yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi kabilar.

Boshlang'ich sinf o'zlashtirishida qiynalayotgan bolalar bilish jarayonlarini rivojlanishini o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar

ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan, o'zlashtirishi murakkab bo'lgan materiallarni oson o'zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko'rish, ular to'g'risida fikrlash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va xulosalarini asoslashga o'rganadilar. boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini to'g'ri egallashlarida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida didaktik o'yinlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar uchun didaktik materiallarni tayyorlab qo'yish, didaktik o'yin jarayoni uchun vaqtni to'g'ri belgilash hamda to'g'ri nazorat qilish, didaktik o'yinni yakunlash kabilarni aniq rejalashtirish kerak bo'ladi. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- didaktik materiallarni yetarli darajada tayyorlash;
- didaktik o'yin jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida nazorat qilish va yo'l-yo'lakay to'g'rilab borish;
- didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarda ziyraklik va mustaqillikni shakllantirib, rivojlantirishga erishish.

Masalan: 1-sinf 2-chorakda —Bir xonali sonlar|| mavzusi bilan tanishtirilayotganda —To'g'ri yura olasanmi?|| didaktik o'yinidan foydalanilsa kutilgan natijani beradi. Bu didaktik o'yinni ikki guruhda musobaqa tarzida tashkil etish mumkin. Shuning uchun ham barcha o'quvchilar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar. Har bir didaktik o'yinda butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati tajribada shuni ko'rsatadiki, ular hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. —Kim aniqroq va tezroq?, —Bo'sh kelma, —Eng yaxshi hisobchil, —Ko'rganni eslab qolish kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga, ularning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida

doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik hissini tarbiyalashga yordam beradi. —Kim turgan saf yaxshiroq?, —Zanjircha, —Narvoncha, —Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin! singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafiga uchun kurashadilar. Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. —Do'koncha turidagi o'yinda o'yinchoqlar —sotib olishlarning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab (qo'shib) chiqishga, necha pul —qaytarib berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi. O'quvchilar —Qiziqarli kvadratlar o'yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga bir yo'la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, erishilishi mumkin bo'lgan natijalar to'g'risida o'ylab ko'rishga va noto'g'ri hisobdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi tez, zo'r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o'tadi. Katta, chiroyli to'pni ko'rgan o'quvchilarda tortinchoqlik yo'qola borib, dadillik bilan sonlarni o'ylab topishga kirishadilar. O'yin jarayonida o'quvchilarda tevarak-atrof haqida to'g'ri tushuncha paydo bo'ladi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini turli xil tushunishlarida yordam beradi. —Do'koncha, —Nimani taqillatdim?, —Teatr, —Bolalar bog'chasida, —Mehmondorchilikda kabi o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar. Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa, ayniqsa, dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar yordamida bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan

ijobiy munosabat paydo bo'ladi. Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. —Bo'g'inlar, —Sanayver, —Qiziqarli kvadratlar kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar va o'zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar. O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishda didaktik o'yinlarning o'zni Boshlang'ich sinf o'zlashtirishida qiynalayotgan o'quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan, o'zlashtirishi murakkab bo'lgan materiallarni oson o'zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko'rish, ular to'g'risida fikrlash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va xulosalarini asoslashga o'rganadilar. O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish va bilim, ko'nikma, malakalarini to'g'ri egallashlariga erishishni didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: 1-sinf 2-chorakda —Bir xonali sonlar mavzusi bilan tanishtirilayotganda —To'g'ri yura olasanmi? didaktik o'yinidan foydalanilsa kutilgan natijani beradi. Bu didaktik o'yinni ikki guruhda musobaqa tarzida tashkil etish mumkin. Didaktik o'yinlar, asosan, ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, ta'limda ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni o'quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo'ymaslik, toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi, dastur materiallarini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi. Didaktik materiallar pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchilar dars mazmunini yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yin va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham

didaktik tamoyillarga mos ravishda yaratiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, dars davomida foydalanilayotgan didaktik o'yin darsning mavzusiga mos ravishda tanlab olinishi muhim ahamiyatga egadir [11]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. O'zlashtirmovchi o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda ham didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslik hissi kuchayadi. Boshlang'ich sinflarda grammatik mavzu va o'quv faoliyati bilan bog'liq turli ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning bilish faoliyatini oshiradi, aqliy charchoqlikning oldini oladi. Shuningdek, olingan bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilishda samarali vositalardan sanaladi. Ayniqsa, ona tili darslarida olib boriladigan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati g'oyatda katta bo'lib, ular mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Grammatik topshiriqlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyga to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. Eng muhimi, bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davr talabi maxsus ta'lim uslubiyatiga ham turli o'zgarishlar kiritdi. Bugungi kunda o'quvchilar bilan qiziqarli, hissiy muloqot qilishni va eng muhimi, o'zlashtirmovchi o'quvchilar o'z dunyoqarashi

va nutqini shakllantirishni orzu qilmaydigan o'qituvchining o'zi yo'q. O'zlashtirmovchi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasini shakllantirish va faollashtirishning samarali vositasi axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida keng qo'llashmoqda [27]. Axborot kommunikativ texnologiyaning ish shakllarini faollashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyati darajasini kengaytirish, qiziqtirish shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. axborot kommunikativ texnologiya maxsus maktabda ta'lim jarayonini jadallashtiradi, dars samaradorligi tezligini oshiradi, barcha o'quvchilarning fan nazariyasini o'zlashtirishini sinab ko'rish, amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish darajasini chuqurlashtirish, har bir o'quvchi bilan dars jarayonida tabaqalashtirilgan ishlarni olib borish imkonini beradi. Maxsus ta'lim jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlari ortadi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi.

- maktablarning darsda ta'lim jarayonida AKT (axborot kommunikativ texnologiyalar) dan foydalanish- o'quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;
- Mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;
- Darsning samaradorligi va har bir o'quvchining o'zlashtirilishi ortadi, ta'minlanadi;
- o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlari, matematik tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;
- Sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta'minlanadi [10].

Innovatsion va axborot texnologiyalarini maxsus ta'lim jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam, deb xarakterlash mumkin. Kompyuterning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagogikada yuksak o'zgarishlar, ya'ni o'qitishning yangi usullari, shakllarini

keltirib chiqardi. Maxsus ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini tatbiqi masalasini X.X.Malofeyev tahlil etib eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida kompyuter texnologiyalarini qo'llash mohiyatini yangi innovatsion yo'llarini ishlab chiqish zarur deb, baholaydi.

O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu usuli zamonaviy axborotni qayta ishlash tizimida baholash uchun qulay va oson hisoblanadi.

Internet – barcha mamlakatlar va xalqlarning odamlarga insoniyatning barcha axborot resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri (onlayn) muloqot qilish, uydan chiqmasdan qulay sharoitlarda ma'lumot olish imkonini beradigan yangi global aloqa vositasidir. Shubhasiz, internetda matematik ta'lim uchun zarur bo'lgan barcha narsalar mavjud: klassik nashrlar; bosma nashrlarning elektron shakllari, muzey eksponantlari, rasm galereyalari; darsliklar va o'quv qo'llanmalari; kitoblar; dasturiy vositalar va elektron kutubxonalar. Masofaviy erkin foydalanish, interaktiv usullar, o'qituvchilar, o'quvchilar, do'stlar bilan bevosita muloqot qilish, tarmoq kutubxonalariga tashrif buyurish, internet axborot imkoniyatlaridan foydalanish, usullar va texnologiyalar- bularning barchasidan har bir eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi unumli foydalana olishi mumkin. ta'lim jarayonida interaktiv taxta va multimedia proyektoridan foydalanishda o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, darsda qulay psixologik muhitni yaratish o'zlashtirmovchi bolalarning mavzuga qiziqishini saqlab qolish, o'quvchilarning o'zini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash imkonini beradi. yorqin tasvirlar, ta'sirchan ranglar, tasavvur qilish uchun cheksiz imkoniyatlar yuqori sinf o'quvchilariga o'yin shaklida o'quv materiallarini osongina o'rganish imkonini beradi. Misol uchun, darsda ular turli xil ranglarda taxtada yozadilar, resurslar va chizmalar kutubxonasidan foydalanadilar. Interaktiv taxtaning imkoniyatlarini bilish, muayyan sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha kerakli matn va grafik materiallarni oldindan tayyorlash, uni dars jarayonida to'g'ri ishlata olish lozim. Shunda matematika darsining samaradorligi oshib boradi, o'qitishda monotonlik, bir xillik yo'qoladi. O'quvchi katta ekranda

baʼzan musiqiy ashula va vizual effektlar bilan koʻrgan narsa uzoq vaqt davomida uning xotirasida qoladi [28]. Oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar dars mavzusidan chalgʻitishni toʻxtatadilar, ularning eʼtiborini ishlab chiqarilgan materiallarga qaratiladi. Oʻquv jarayonini tashkil qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish oz vaqt ichida oʻrganilayotgan materialning semantik yadrosini taqdim etish, eʼtibor berish kerak boʻlgan asosiy fikrlarni, shuningdek, siqilgan, yorqin va shuning uchun esda qolarli shaklni belgilash imkonini beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, axborot kommunikativ texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllash ularning anʼanaviy taʼlim usullari va uslublari bilan muvofiqligi taʼminlangan taqdirdagina samarali boʻladi. Maktabda taʼlim boʻyicha oʻquv jarayonida axborot-kommunikativ texnologiyalarni qoʻllash eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarning bilimini oshirishning samarali vositasi boʻlib, maxsus maktab oʻquvchilarning individual ijodkorlik faoliyatini tashkillashtirish uchun sharoit yaratadi.

Oʻqituvchi oʻquchining bilim darajasi, uning salomatligi holati, tafakkur, xotirasi xususiyatlari va hokazolarni inobatga olib, kompyuterda ishlash vaqtini belgilaydi. Charchoqning sezilishi, diqqatning boʻlinishi singari dastlabki belgilaridayoq, oʻqituvchi ishni toʻxtatishi shart. Kompyuterda ishlash oʻquv vaqtining faqat bir qismini egallashi shart. Yangi nazariy materialni qaytarilishi dars oʻtishning aralash shakllarida katta foyda keltiradi.

2.4 §Psixokorreksion ishlarni tashkil etish (metodik tavsiyalar)

Umumiy pedegogika psixologiya va maxsus adabiyotlarni taxlil qilish, amaliy ishlarni oʻrganish psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarni bilish jarayonlarini oʻrganish boʻyicha olib borilgan eksperiment natijalarini sifatli taxlil qilish ushbu yoʻnalishda qator metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Xotira inson shaxsini birligi va bir butunligini taʼminlaydi. Diqqat esa shaxs uchun maʼlum ahamiyatga ega boʻlgan obʼekt ustida toʻplanishdan iboratdir.

Oʻzlashtirishida qiynalayotgan bolalarda esa xotira va diqqat sustligi yaxshi rivojlanmaganligi sababali biz metodik tavsiyanomada bolalar uchun rivojlantiruvchi namunaviy oʻyinlar berishga harakat qildik:

Xotirani rivojlantirish

1. “Juft rasmlar”.

Bir biri bilan mazmunan bog‘liq bo‘lgan 7-8 ta rasmni tanlab oling, uni bolaning oldiga juft-juft qilib qo‘ying. Masalan, daraxt tasviri tushirilgan rasm, o‘rmon tasviri tushirilgan rasm yoniga uy rasmi tushirilgan rasm deraza rasmi yoniga qo‘yiladi. Xullas, predmetlarning har qanday bog‘liq xolatlari bo‘lishi mumkin. Bola rasmlani yaxshilab ko‘rishlikni va chap qatoriga tegmagan holda, o‘ng qatordan imkon boricha ko‘proq rasmlarni eslab qolishni tavsiya etiladi. Qoldirilgan rasmlarga qarab, olib qo‘yilgan rasmlar nomini aytishni boladan so‘raladi. Agar bola qiynalsa rasmlar o‘rtasida mazmunan bog‘liqlikni o‘rnating va bir ikki misolda yordam bering. Sekin asta juft rasmlar sonini ko‘paytira borib ularning ko‘rish vaqtini kamaytira borib, yoki ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni uzoqlashtira borib o‘yinni murakkablashtirish mumkin. (Masalan, avval qizaloq rasmi oldida, bantik rasmi tushirilgan rasm qo‘yilgan bo‘lsa, keyinchalik uning oldiga o‘rmon tasviri tushirilgan rasm qo‘yilishi mumkin). Shunday qilib bola asta sekin ancha murakkab mazmunli bog‘lanishlarni o‘rnatishni o‘rganadi va shu bilan o‘z xotirasini rivojlantiradi.

2.”Juft so‘z”.

“Juft so‘z” o‘yinining bir turi. Bolaga eslab qolish uchun juft so‘zlarni tavsiya etiladi. Masalan shunday juft so‘zlarni ayting: mushuk-sut, bola-mashina, stol-pirog va boshqalar, boladan har bir juft so‘zdan ikkinchi so‘zni eslab qolishni so‘rang. So‘ngra juft so‘zni birinchi so‘zini aytasiz bola esa uning ikkinchi so‘zini eslab qolgan bo‘lishi kerak. Vazifani asta sekin juft so‘zlar sonini ko‘paytirish va mazmunan bir-biridan uzoq so‘zlarni qo‘shish bilan murakkablashtirish mumkin.

3.“Nomla-qaytarma”.

Bu o‘yin uchun avvalo ikkita so‘ngra undan ko‘proq guruh rasmlar joylashtirilgan devoriy polotno material bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarga hozir sizlarga ikkita har xil guruh rasmlari ko‘rsatiladi, sizlar uni topishinglar kerak deb vazifa qo‘yiladi. Avval bir bolani chaqiriladi. U rasmlar tasvirlangan boshqa guruhning bir turdagi predmetlarini sanab o‘tadi vazifani to‘g‘ri va mustaqil

bajargan bola rag‘batlantiriladi. Agarda bola qaysi bir rasmni aytmasa ikkita guruxni belgilarini almashtirib yuborsa yoki ungacha aytilgan so‘zlarni qisman qaytarsa unda aybdor tavon to‘laydi. Bu o‘inga musobaqa bellgisini kiritish mumkin. Polotnoga qancha ko‘p rasm guruhlari joylashtirilsa shuncha ko‘p bolalar qatnashadilar, bolalarning shuncha ko‘p guruxlarga bo‘lish mumkin.

4.“Jonli rasm”.

Maqsad: Kuzatuvchanlikni, diqqatni, xotirani rivojlantirish bola o‘z yon qo‘shnisi yoki guruxni xoxlagan bolasini diqqat bilan ko‘rib olishni taklif qiladi, so‘ngra ko‘zni yumib shunday tasvirlasinki, qolgan bolalar kim to‘g‘risida gapirayotganini faxmlasinlar.

5.“Assosatsiyalar musobaqasi”.

Qatnashuvchilar doira shaklida o‘tiradilar. Olib boruvchi ikkita tasodifiy so‘zni atib o‘tadi. Qatnashuvchilarning birortasi so‘zni ta’riflab beradi, u birinchi so‘zni ikkinchisiga bog‘lashga harakat qiladi. O‘zini ta’riflab bergan so‘ziga yana boshqa so‘zni qo‘shib o‘zining chap tomonida o‘tirgan ishtirokchiga so‘z beradi. U uchinchi so‘zni ikkinchi so‘z bilan bog‘laydi va o‘zining uchinchi so‘zini o‘zidan keyingi bolaga aytiladi. O‘yin aylana shaklida davom etib aylanani oxiriga kelgach boshlovchi sekundomerdan qancha vaqtdan kelganini aniqlaydi. Yaxshi ishtirokchilar bir necha aylanalar qilib qatnashishlari mumkin. Boshlovchi o‘yinni xoxlagan joyida to‘xtatib ishtirokchilardan hammasini takrorlab berishni so‘raydi. Agar ishtirokchi faqat o‘zini so‘zlarini aytib bera olsa o‘yindan chiqib ketadi.

Diqqatni rivojlantirish

1. “Kim chaqqon”

O‘quvchilarning istalgan biror matndagi ko‘p uchraydigan ta’riflarni masalan “O” yoki “E” xarflarini tez va aniq bilgilib chiqish tavsiya etiladi. Testning muvafaqiyatli bajarilishi vaqti xatolar soni va belgilanmay qolgan xatolar soni bilan baholanadi. Bu ko‘rsatgichlar qanchalik kam bo‘lsa shunchalik yaxshi bajarilgan bo‘ladi. Bunda bolani rag‘batlantirish va uni qiziqishlarini oshirishga erishish kerak.

Diqqatni ko‘chuvchanligi va taqsimlanishini mashq qildirish uchun vazifani o‘zgartirish kerak. Bunda, bitta harfni vertikal chiziq bilan boshqasini

gorizontal chiziq bilan o'chirish yoki o'qituvchining ishorasi bilan shu harflarni o'chirishda o'rnini almashtirish mumkin. Masalan bir harfni o'chirish ikkichi xarfni tagiga chizish uchinchi xarfni doira ichga olish va xakazo. Bunday mashqlarning maqsadi-odatiy harakatlarni avtomatizm darajasiga yetkazish, aniq bo'yso'ndirilgan aniq maqsadni anglash mashqlar davomiyligi bolaning yoshiga qarab bergilanadi (kichik maktab yosh-15 minut; o'smirlar uchun 30 minutgacha).

2.“Diqqatni jamlash”

Atrofdagi narsa-buyumlarda, tana a'zolarida yoki fikrlarda o'tkazilishi mumkin. Diqqatni jamlash mashqlarning har bir minutdan yarim soatgacha vaqt ajratiladi. Vaqt belgilanib kerakli holat tanlanadi va muskullar bo'shashtiriladi so'ng diqqatni jamlash ob'ekti tanlanadi. Agar mashq davomida diqqat boshqa narsalarga chalg'iy boshlasa, asabiylashmasdan, tushkunlikka tushmasdan, diqqatni yana kerakli ob'ektga qaytariladi. Mashq uchun belgilangan vaqt davomida kishi diqqatining chalg'ishi 3 martadan oshmasligi muxim xisoblanadi.

3.“Barmoqlar”

Qatnashuvchilar o'rindiqlarida doira hosil qilib o'tiradilar qo'larini tizzalariga qo'yib bir biriga chalishtirib bosh barmoqlarini erkin qoldiradilar. “Boshlang” ishorasi bilan bosh barmoqlarini bir biri atrofida sekin asta ma'lum tezlikda va bir yo'nalishda aylantira boshlaydilar. Bosh barmoqlarni bir biriga tegib ketmasligi muhim. Shu harakat diqqatni jamlanadi “To'xta” ishorasi bilan to'xtatiladi. Mashqning davomiyligi 5-15 minut ba'zi qatnashuvchilar o'zlarini g'alati xis qiladilar: barmoqlari ko'payib yoki kamayib qolgandek, harakat yo'nalishi o'zgargandek. Kimdir o'zini kuchli bezovta qiladi bu qiynchiliklar diqqat ob'etining odatdagidek bo'lmaganligidan kelib chiqadi.

4.“Eng xushyor”

Qatnashuvchilar yarim doira shaklida turishi kerak. Bir o'yinchi oldinga chiqib bir necha daqiqada o'yinchilar joylashish tartibini eslab qolishi kerak. So'ng o'rtoqlari teskari o'girilib turib qatnashuvchilarini joylashish tartibini aytib chiqadi. O'yin davomida har bir qatnashuvchi shu mashqni bajaradi. Kim xato qilmay aytsa shu g'olib bo'ladi.

Barmoq gimnastikasi

Manual (qo'l) harakatlarining inson miyasi rivojlanishiga t'siri Xitoyda eramizgacha II asrdayoq ma'lum edi. Mutafakkirlarning ta'kidlashicha, qo'l va barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bog'likligini ta'minlaydi, miya tizimini zarur holatda tutib turadi.

Qo'l, kaft, barmoqlarni rivojlantirishni miya rivojiga ta'siri kattaligi tasdiqlangan. Qo'lning oddiy harakatlari bilan nafaqat qo'lning balki, lab, yuz muskullari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy kamchilikni oldini oladi, ular tovush talaffuzini yaxshilashga ham yordam beradi.

Tadqiqotlardan ma'lumki qo'lning har bir barmog'i miya po'stlog'ida o'ziga xos nuqtalarni tasvirlaydi. Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutq zonasiga ta'sir qilib, nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Bu mashqlarni ilk bolalikdan boshlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasilgi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.—T., 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi xalq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. Toshkent sh., 2019 yil 29 aprel, PF-5712-son.// Qonun hujjatlari, ma'lumtlari milliy ba'zasi sayti, 2019 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi Farmoni. Toshkent sh., 2017
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi Farmoni. Toshkent sh., 2017 yil 1 dekabr, PF-5270-son.// Qonun hujjatlari, ma'lumotlari milliy bazasi sayti, 2017 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi xalq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. Toshkent sh., 2019 yil 29 aprel, PF-5712-son.//
7. O'zbekiston Respublikasi —Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi Qonun-2011 yil.
8. A.I.D'yachkova ta'riri ostida «Anomal bolalar ta'lim-tarbiya asoslari» -M.: Prosvehenie, 1995 yil.
9. Aytmetova S. SH. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixologik rivojlanish xususiyatlari. - T.: «O'qituvchi». 1985 y.
10. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003
11. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. -25-28 b

12. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITUVCHISI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK ASPEKTI Gulshanoy Turdiyevna Jurayeva Amina Ismatillayevna Najimova Navoiy davlat pedagogika instituti MAQOLA
13. BOSHLANG'CH SINFLARDA O'ZLASHTIRILMASLIKNING OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR Zamira Yangiboyevna Radjabboyeva Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 173-maktab
14. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA O'ZLASHTIRMOVCHILIKNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR Ra'no Mamasoliyevna Gulmurodova Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, 38-maktab. Maqola
15. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI Hamroqulova Xadichabonu Jizzax davlat pedagogika inistituti talabasi Doniyarov Mavlonbek Arabovich Jizzax davlat pedagogika inistituti Boshlang'ich talim fakulteti o'qituvchisi
16. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. «Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya). - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1
17. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. «Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya). - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
18. Defektologicheskiy slovar. M., Pedagogika, 2000 R.Shomaxmudova., G.A.Sodiqova , Fayziyeva U.YU
19. Defektologiya kafedrası ta'lim klasteri loyihasi
20. Diagnostika psixicheskogo razvitiya v rannem detstve. Avtoro`-sostaviteli: Aytjanova R.K., Sulaymenova R.A., Ersarina A.K. i dr. -Almato`, 2000.
21. Doniyarov, M. O'QISH SAVODXONLIGIDAN KO'ZLANGAN MAQSADLAR. Innovation in Primary Education, 2(3). 2021.
22. Gurova A. “Диагностика психического развития детей”.
23. Gutkina N.I. Maktabga psixologik tayyorgarlik. -M.: Komteks-markazi, 1993.-S. 176. sakkiz Bolalar aqliy zaiflik bilan / Ed. T.A. Vlasova, V.I. Lu-bovskiy, N.A. Tsipina. (Ilmiy -tadqiqot defektologiya instituti.

24. Gutkina N.I. Maktabga psixologik tayyorgarlik. -M.: Komteks-markazi, 1993.-S. 176. sakkiz Bolalar aqliy zaiflik bilan / Ed. T.A. Vlasova, V.I. Lu-bovskiy, N.A. Tsipina. (Ilmiy -tadqiqot defektologiya instituti
25. Hasanboyev Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O 'quv qo'llanma. —Toshkent: Fan, 2006.
26. Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL:<http://www.invest-infrance.org/us/why-choose-france/research-andpartnerships-innovation-clusters.htm>)
27. Jumaev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2006, № 6. -17-20 b.
28. Jumaev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2006, № 6. -17-20 b.
29. Korreksionno-vospitatelnaya napravlennost obucheniya i vospitaniya vo vspomogatelnoy shkole”. Tashkent, 1986, sbornik nauchno`x trudov, 14-23-betlar.
30. Logopediya. Volkova L.V. tahriri ostida.- M.: 1999 y.
31. Mamedov K., Shoumarov.; “Aqli zaif bolalar psixologiyasi”Toshkent,1994,107-114-betlar.
32. Mamedova K, Shoumarov “Aqliy zaif bolalar psixologiyasi”. Toshkent 1994. 30-39 betlar
33. Mo'minova L., Qahramonova M. Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati.- T.: «O'qituvchi», 1988 y.
34. Metodon psixolog-pedagogicheskogo izucheniya anomalno`x detey. M., 1981
35. Nazarova D. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy echimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferenstiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
36. Nazarova D.. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy echimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferenstiya materiallari. – Toshkent, 2007. –B. 60-63.
37. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.